

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI**




**MAVZU: “Harakatlar strategiyasi doirasida “AGROKVANT”  
MCHJni rivojlantirish yo`nalishlari**

**Rahbar: Aynaqulov M.**


**Talaba: Piratov J.**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

DAK raisi  


“18” 06 2018 yil

Kafedra mudiri

  
S.A. Abdunazarov  
“18” 06 2018 yil

*TUSHUNTIRISH QISMI*


Mavzu: *Harakatlar strategiyasi doirasida “AGROKVANT” MCHJni rivojlantirish yo’nalishlari*

*BITIRUV MALAKA ISHINING TARKIBI*

*Tushuntirish qismi* 84 varaq


*Grafik qismi* 6 varaq

Talaba:



Piratov J.A.


Bitiruv malaka ishi rahbari:



Aynaqulov M.A.

**BO'LIMLAR BO'YICHA MASLAHATCHILAR:**


1. Asosiy bo'lim bo'yicha:



Aynaqulov M.A.

2. Mehnat va atrof-muhit


muhofazasi bo'yicha maslahatchi:



Xoldorov B.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI  
“MENEJMENT” KAFEDRASI

Kafedra mudiri:

 dots. S.A. Abdunazarov

“16” 06 2018 yil

MALAKAVIY BITIRUV ISHIGA TOPSHIRIQ

411- 14 QM guruhi talabasi Piratov Jaloliddin Abdurazoq o'g'li

**1. BMI mavzusi:** Harakatlar strategiyasi doirasida “AGROKVANT” MCHJni rivojlantirish yo'nalishlari

BMI mavzusi institut rektorining 2017 yil «\_25\_» \_dekabrdagi\_ № 383-T\_ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**2. Tugallangan ishning topshirish muddati** 2018 yil 10 iyun

**BMI bajarish uchun kerakli bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlar:** Bitiruv oldi amaliyoti hisoboti buyicha oxirgi 3 yillik korxonaning statistik ma'lumotlari.

**4. BMI hisob tushuntirish matnining tarkibi:**

4.1. Kirish qismi.

4.2. Asosiy kism.

4.3. Mehnat va atrof-muhit muhofazasi

4.4. Xulosa va takliflar.

4.5. Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati.

5. Chizma materiallar ro'yxati:

5.1. «AGROKVANT» MCHJ ning 2015-2016-2017 yillardagi asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

5.2. «AGROKVANT» MCHJ ning 2015-2016-2017-yillardagi iqtisodiy salohiyat samaradorligi tahlili

5.3. Asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

5.4. Aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili


5.5. Mehnat potensiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash hisob-kitobi va tahlili

5.6 Korxonada diversifikatsion yo'nalishlarning asosiy tarkibiy qismlari va ularning davlat va nodavlat taskilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mexanizmlari

6. Topshiriq berilgan sana 20.12.2017



Bitiruv malakaviy ishi rahbari

Topshiriqni bajarishga kirishilgan sana



 Aynaqulov M.

(sana. talabaning imzosi)


**BMIning bo'limlari maslahatchilaridan topshiriq olish**

Nº	Bo'lim nomi	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo	Sana
1	Asosiy qism	Aynaqulov M.		1.03
2	Mehnat va atrof-muhit muhofazasi	Xoldorov B.		10.06
3				
4				

**Bitiruv malakaviy ishini bajarish tartibi.**

Nº	MBI bo'limlarining nomi	Bajarilish muddati	Izoh
1	Asosiy qismi.	24.02. – 2.03.	
2	Mehnat va atrof-muhit muhofazasi	7.06. - 10.06.	
3			


BMI rahbari



Aynaqulov M.

Sana

Talaba



Piratov J.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	
I-BOB “Harakatlar strategiyasi” doirasida rivojlantirish yo’nalishlarining nazariy asoslari.....	
1.1 Korxonalarni rivojlantirishning intensiv va ekstensiv usullari.....	
1.2 Korxonalarni rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	
1.3 Korxonalar rivojlanish yo’nalishlarining huquqiy asoslari.....	
II-BOB “AGROKVANT” MCHJning 2015-2016-2017 yillardagi holatini baholash.....	
2.1 “AGROKVANT” MCHJning xo’jalik yuritish potensiali tahlili.....	
2.2 “AGROKVANT” MCHJning 2015-2016-2017 yillardagi kreditorlik va debitorlik qarzdorligi, foyda hamda rentabelligi tahlili.....	
2.3 “AGROKVANT” MCHJning resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi tahlili.....	
III-BOB “Harakatlar strategiyasi” doirasida “AGROKVANT” MCHJning istiqbolli rivojlanish yo’nalishlarini asoslash.....	
3.1 Harakatlar strategiyasi bo'yicha diversifikatsion rivojlanish yo’nalishlari.....	
3.2 Korxonalarning iqtisodiy rivojlanishida to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyaning ahamiyati.....	
3.3 Fan-texnika yutuqlari va uning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri	
Xulosa va takliflar.....	
Mehnat va atrof-muhit muhofazasi.....	
Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	

## KIRISH

Ayni vaqtida mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida **2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasikonsepsiysi** ishlab chiqilgan.<sup>1</sup>

**Mavzuning dolzarblii.** Jahoning deyarli barcha davlatlarida amal qilayotgan iqtisodiyotning bozor qonunlariga asoslanuvchi tuzumi unda faoliyat olib borayotgan korxona va tashkilotlardan bozor ehtiyojini qondiradigan eng samarali yo’llarni izlab topish va o‘z faoliyati natijalarini muntazam rivojlantirib borishni talab etadi. Bu talab shuning uchun qo‘yilmoqdaki, korxonalar o’zları faoliyat olib borayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishi, ayniqsa, ichki bozorni mahsulotlar va xizmatlar bilan to’ldirishi, mehnat resurslari bandligi hamda aholi daromadlarini oshirishi lozim.

Korxonalaro’z erishayotgan natijalari bilan ular joylashgan mamlakat iqtisodiyotida muhim o’ringa ega ekanligi bois hukumatimiz tadbirkorlik sub’yektlari, jumladan, ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini tubdan isloh qilish, ular daromadini boqichma-bosqich oshirib borishni ko’zda tutuvchi choratadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. **“O‘zbekiston Respublikasini yanada**

---

<sup>1</sup> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI YANADA RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA HARAKATLAR STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni

**rivojlantirish bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI to'g'risida"**gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonida ko'zda tutilgan ustuvor vazifalardan biri ham aynan iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Ayni damda mamlakatimiz ishlab chiqarish sub'yektlari oldida yuqori iqtisodiy o'sishni qayd etgan holda moliyaviy salohiyatlarini yanada mustahkamlash vazifasi turibdi. Bu maqsadga erishish ortidan korxonalar rivojlanib mamlakat miqiyosidagi iqtisodiy o'sishga o'z ta'sirini o'tkazishi shubhasizdir.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbliji korxonalarini rivojlantirish yo'naliшlarini qidirib topish orqali mavjud ichki bozorni turli xildagi mahsulotlar va xizmatlar bilan to'ldirish, mehnat resurslari bandligi hamda aholi daromadlarini oshirish masalalariga yechim qidirilayotgan ayni damda yaqqol namoyon bo'ladi.

**Muammoning o'r ganilganlik darajasi.** Korxona faoliyatini rivojlantirishning alohida masalalari, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, xalq xo'jaligi tarmoqlarining u yoki bu yo'naliшlarida faoliyat olib borayotgan ishlab chiqarishkorxonalarini nuqtai nazaridan ma'lum darajada o'r ganilgan.

Mamlakatimizolimlari hamda chet el iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham korxona iqtisodiyotimavzulario'r ganilgan. Masalan, Ivanov V.N., Kuznetsov O.V., Lapusta M.G., Morrell D., Riks Devid A., Rubin Yu.B. kabilar tomonidan darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratilgan va qiyosiy tahlil qilingan. Mamlakatimizda G'oyibnazarov B.K., Akramova N.I., G'ulomov S.S., AbdullayevE, Muhammedov M., Istamov S., tomonidan taylorlangan darslik, o'quvqo'llanmalar va ilmiy ishlar aynan ushbu mavzularga bag'ishlangan. Korxonalarini iqtisodiy holati vamoliyaviy sog'lomlashtirish masalalarini nazariy va amaliy nuqtai nazardan birqator tadqiqotchilar V.Shapiro<sup>2</sup>, T.Aleksandr<sup>3</sup>,

---

<sup>2</sup>МазурИ.И., ШапировВ.Д. Реструктуризацияпредприятийи компаний—М.: Изд-воЭкономика, 2002. 56-58

I.G.Egoro'chev<sup>4</sup>, N.H.Hasanov,S.F.Najbiddinov<sup>5</sup>, G.K.Saidova<sup>6</sup>, D.Heigel<sup>7</sup>, E, B.Shvehr<sup>8</sup>, R.A.Vutzke<sup>9</sup>,B.Uhlenbrak, Bork<sup>10</sup>, keng miqyosda o'rgangan bo'lib, ular o'zlarining ilmiyishlarida, avvalo, korxonalarning iqtisodiyotdagi mohiyati, o'ziga xos xususiyatlariva ularning tashkil etishning iqtisodiy jihatlarining amaliy va nazariy ahamiyati,uning zaruriyati, tamoyillari va qonuniyatlariga oydinlik kiritgan.

Bundan tashqari, bu muammo g'arb iqtisodchi olimlaridan ingliz iqtisodchisi Roy Xarrod (1900-1978 y.), amerikalik iqtisodchi neokeynschilik yo'nalishi vakili Yevsey Domar (1914-1997 y.) Uolt Rostou (1916-2003 y.), amerikalik olimlar Charlz Kobb (1875-1949 y.) va Pol Duglas (1892-1976 y.)neoklassik nazariyasi vakili Robert Solou (1924 y. tug'ilgan)Pol Romer (1955 y. tug'ilgan) va Robert Lukas (1937 y. tug'ilgan) institutsionalist Torsteyn Veblen (1857-1929 y.),Yozef Shumpeter (1883-1950 y.)larning tadqiqot ishlarida iqtisodiy o'sish nuqtai nazaridan tadqiq etilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Bitiruv malakaviy ishining maqsadi bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalari faoliyati natijalarini yuqori bosqichga olib chiqish, samaradorligini oshirish va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini asoslashga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

-respublikamiz korxonalari faoliyatini rivojlantirishning intensiv va ekstensiv usullarini o'rganish;

---

<sup>3</sup>Темкин Александр. "Реструктуризация бизнеса или финансовое оздоровление?".//Управление компаний– М.:– 2003. №4. 63

<sup>4</sup>Крюков А.Ф. , Егор'чев И.Г. Анализ методик прогнозирования кризисной ситуации коммерческих организаций с использованием финансовых индикаторов// Менеджмент в России и за рубежом, 2001. №2. 54

<sup>5</sup>Хасанов Н.Х., Нажбиддинов С.Ф. Оценка экономического состояния предприятия: проблемы и решения – Т.: «Мир экономики и права», 1999г.–224.

<sup>6</sup>Сайдова Г.К. Кое-что о банкротстве//Экономическое обозрение – Т.: 2003. №2, 78

<sup>7</sup>Хэйгел Джон. Ложный путь к эффективности, "Вестника McKinsey". <http://www.vestnikmckinsey.ru>

<sup>8</sup>Bianca Schwehr, "Corporate Rehabilitation Proceedings in the United States and Germany".

[www.interscience.wiley.com](http://www.interscience.wiley.com). last access date: 27.04.2011.

<sup>9</sup>Wutzke RA, "Report on the insolvency plan procedure on the occasion of the ZInsO—conference" (24/25. 05. 2002 in Berlin).

<sup>10</sup>Bork, Insolvenzrecht, marg. no. 333; Herzig, Das Insolvenzplanverfahren, pp. 41 et seq.; KuËbler/ PruËtting/Otte, InsO, § 231 marg. no. 4 t seq

- korxonalar faoliyatini rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalarini o'rganish;
- "AGROKVANT" MCHJfaoliyatini iqtisodiy, ijtimoiy hamda moliyaviy ko'rsatkichlarining 2015-2016-2017 yillardagi holatini tahlil qilish;
- respublikamizdag'i korxonalar faoliyatini istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini asoslash yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti** sifatida Jizzax viloyati Jizzax shahrida joylashgan "AGROKVANT" MCHJ tanlangan.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti** esakorxonalar faoliyatini natijalarini yuqori bosqichga olib chiqish va rivojlantirish masalasini hal etish jarayonida yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishida olib borilgan tadqiqotdankorxonalar faoliyatini natijalarini yuqori bosqichga olib chiqish va rivojlantirish borasida mavjud holatdan kelib chiqqan holda iqtisodiyotning real sektorida muhim o'ringa ega bo'lgan boshqa tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatiga joriy qilish mumkin bo'lgan faoliyat turlarini aniqlash va buning uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

## **I-BOB. “HARAKATLAR STRATEGIYASI” DOIRASIDA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARINING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1 Korxonalarini rivojlantirishning intensiv va ekstensiv usullari**

Xalqning turmush darajasini oshirish, erkin va farovon hayotni qurishda milliy iqtisodiyotning barqaror o’sishini ta’minlash va jamiyat a’zolarining daromadlarini oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, muxtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagи nutqida “...biz iqtisodiyotimizni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish va shu tariqa jahon bozorida munosib va mustahkam o’rin egallashga asosiy e’tibor qaratmoqdamiz.”- deya ta’kidlaganlar.

Iqtisodiy rivojlanish iqtisodiy o’sish tushunchasi bilan bevosita bo’gлиq tushuncha bolib, iqtisodiy o’sish muayyan davr mobaynida mamlakatda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish darajasining ijobiliy o’zgarishidir. Boshqacha aytganda, iqtisodiy o’sish bu milliy iqtisodiyotda muayyan davr davomida (odatda bir yil) mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining oshishidir.

Iqtisodiy o’sish nazariyalarining rivojlanishida neokeynschilik, neoklassiklar va institutsionalizm yo’nalishlarini ajratib ko’rsatish mumkin. Ushbu yo’nalishlar doirasida esa iqtisodiy o’sishning turli nazariy modellari yaratila boshlandi. XX asrning o’rtalarida keynschilikning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi asosida yangi yo’nalish, ya’ni neokeynschilik vujudga keldi. Iqtisodiy o’sishning dinamik modellarini ishlab chiqqan neokeynschilik vakillari orasida ingliz iqtisodchisi Roy Xarrod (1900-1978 y.) o’z modelida ishchi kuchi, aholi jon boshiga daromad va naqd kapital o’sishi o’rtasidagi munosabatlarni tadqiq qildi. U milliy daromadning kapital sig’imlilik darajasini ifodalovchi “kapital koeffitsiyenti” tushunchasini yaratdi. R.Xarrod kapital sig’imlilik mezonidan texnika taraqqiyotining iqtisodiyotga ta’sirini tahlil qilishda foydalandi.

Amerikalik iqtisodchi neokeyschilik yo'nalishi vakili Yevsey Domar (1914-1997 y.) ham R.Xarrod tadqiqotlaridan bexabar ravishda mutanosib iqtisodiy o'sishning biroz boshqacharoq modelini taklif etadi. U J.M.Keynsning investitsiyalar daromadni shakllantirish orqali talabni oshiradi, degan fikriga qo'shimcha qilib, investitsiyalar bir vaqtning o'zida tovarlar taklifining oshishiga ham olib keladi, deb ta'kidlaydi. Ye.Domar va R.Xarrod modellarida iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi omil sifatida investitsiyalar keltiriladi, chunki ular multiplikativ ta'sirga ega va shuning uchun barqaror o'sishni ta'minlaydi. Ushbu modelda J.Keynsdan farqli o'laroq takror ishlab chiqarish jarayoni uzoq muddatli davr dinamikasida tadqiq qilingan. Xarrod-Domar modeli bozor iqtisodiyotining o'z-o'zini boshqarish imkoniyatiga ega bo'la olmasligini asoslab berdi.

Iqtisodiy o'sish nazariyalarining rivojlanishiga amerikalik olim Uolt Rostouning (1916-2003 y.) "iqtisodiy o'sish davrlari nazariyasi" katta ta'sir ko'rsatdi. U iqtisodiy o'sishning beshta davrini taklif etgan: "an'anaviy" jamiyat, "uchish" (ko'tarilish)ga shart-sharoit yaratish yoki o'tish davri, "uchish" (ko'tarilish) davri, yetilish (ilmiy-texnik inqilob) davri, yuqori ommaviy iste'mol davri. U.Rostou o'zining keyinroq nashr qilgan "Siyosat va o'sish davrlari" (1971y.) asarida iqtisodiy o'sishning "hayot sifatini izlash" deb nomlangan oltinchi davrini ham taklif etadi. Ushbu davrda birinchi darajaga insonning ma'naviy-ruhiy rivojlanishi chiqadi.

Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari amerikalik olimlar Charlz Cobb (1875-1949 y.) va Pol Duglas (1892-1976 y.) tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqarish funksiyasiga asoslanadi. Cobb-Duglas funksiyasi hozirgi kunda ham iqtisodiy o'sishning alohida omillarini, ayniqsa texnik rivojlanishni baholashda foydalilanadi.

Neoklassik nazariyasi vakili Robert Solou (1924 y. tug'ilgan) o'z modelida jamg'armalar, mehnat resurslari o'sishi va ilmiy-texnik taraqqiyotning aholi turmush darajasi va uning dinamikasiga ta'sir qilish mexanizmini aniqladi. Ushbu model iqtisodiy o'sishning muvozanatli trayektoriyalarini tadqiq qilishga

mo'ljallangan bo'lib, differensial tenglamalar tizimi shaklida namoyon bo'ladi. Mazkur model o'sayotgan asosiy kapitalning jon boshiga mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishga olib kelishi mexanizmini ko'rsatadi. R.Solouning asosiy xulosasi shuki, uzoq muddatda iqtisodiy o'sish sur'atlari kapital qo'yilmalar oshishiga emas, balki texnologik rivojlanish omiliga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, uningcha doimiy texnik rivojlanish va resurslardan samarali foydalanish iqtisodiy o'sishning asosiy omillari hisoblanadi.

Pol Romer (1955 y. tug'ilgan) va Robert Lukas (1937 y. tug'ilgan) 1980 yillar oxiri va 1990 yillarning boshlarida Solou modelidan qoniqmagan holda endogen iqtisodiy o'sish nazariyasini yaratdilar. Bu nazariya texnologik taraqqiyotni matematik tushuntirishni nazarda tutar edi va o'z ichiga ishchilar faoliyati samarasini oshiradigan bilim, malaka va qobiliyatni ifodalaydigan inson kapitali tamoyilini ham olgan edi. Boshqa kapital shakllaridan farqli ravishda inson kapitalining rentabelligi o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi. Shuning uchun mamlakatning iqtisodiy o'sishi kapital to'plangani sari sekinlashmaydi va iqtisodiy o'sish sur'atlari kiritilayotgan kapital turiga bog'liq bo'ladi. Inson kapitalini oshiradigan omillar sifatida esa ta'lim va innovatsiyalar keltiriladi.

Siyosiy iqtisod va sotsiologiya hamohangligida vujudga kelgan yangi oqim institutsionalizm nomini oldi. Bu yo'nalishga Torsteyn Veblen (1857-1929 y.) asos solgan bo'lib, uning asosiy g'oyasi barqaror rivojlanishni ta'minlovchi iqtisodiyotning ishonchli ijtimoiy nazorat mexanizmini yaratish edi. Institutsiyonlarning neoklassikklardan farqli ravishda ratsional emas, balki real inson g'oyasini ilgari surdilar. Ular fanlararo yondashuv asosida iqtisodiy tahlillarni psixologiya, antropologiya, huquq, biologiya elementlarini kiritib olib borganlar. Bunda "institut" atamasi ijtimoiy birlikni (oila, davlat, monopoliya) yoki muayyan guruh kishilar yoki butun xalqning psixologiyasi, o'zini tutish motivlari, fikrlash tarzi, urf-odatlari, huquqiy-axloqiy xususiyatlarini o'zida mujassam etadi.

XX asrning boshlarida Yozef Shumpeter (1883-1950 y.) iqtisodiy o'sish va rivojlanish nazariyalarining asoslarini yaratdi. Ushbu nazariyalarning

rivojlanishiga Saymon Kuznets, Fernan Brodel, Teodor Shuls, Geri Bekker, Maykl Porter, Nikolay Kondratyev va boshqa iqtisodchi olimlar o'z hissalarini qo'shganlar. Yozef Shumpeter birinchi bo'lib iqtisodiyotning o'sishi va rivojlanishi o'rtasidagi farqni ajratib ko'rsatdi va iqtisodiy o'sishning asosiy kuchi sifatida innovatsiyalar mohiyatini tadqiq qildi. U o'zining 1911 yilda birinchi marta nashr qilingan va asosiy ilmiy ishi bo'lgan "Iqtisodiy rivojlanish nazariyası" nomli monografiyasida iqtisodiy o'sishni aynan bir xil tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va iste'mol qilishning vaqt o'tishi bilan miqdoriy o'zgarishi, ya'ni oshishi bilan ifodalaydi. Yozef Shumpeter iqtisodiy rivojlanishni mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish, boshqarish va boshqa iqtisodiy faoliyat turlari va hayot jabhalarida ijobiy sifat o'zgarishlari va yangilanishi bilan ta'riflaydi.

Mahsulotning o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

**Ekstensiv iqtisodiy o'sishga** ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa qo'paytirish uchun mavjud korxona bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarining quvvati, miqdori va sifati bo'yicha, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha xuddi o'shanday yana bir korxona quriladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sish moddiy ishlab chiqarishda foydalaniladigan resurslar hajmining oshishi natijasida kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, ekstensiv iqtisodiy o'sish tabiiy resurslar, ishchi kuchi va kapital kabi ishlab chiqarish omillarini qo'shimcha jalb qilish va faqat ularning miqdoriy oshishi hisobiga ro'y beradi. Bunda ularning sifat va texnikaviy darajasi o'zgarmasdan qoladi

**Iqtisodiy o'sishning intensiv turi** sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarining sifat jihatidan takomshshashtirish: yanada progressivroq ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash,

ishchi kuchi malakasini oshirishi, shuningdek mavjud ishlab chiqarishpotensialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalg etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa oshirish uchun mavjud korxonaga teng bo'lgan yana bir korxona qurishga hojat yo'q. Bu natijaga ishlab turgan korxonani rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta qurollantirish, mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga erishish mumkin. Intensiv iqtisodiy o'sish ilmiy-texnikaviy bazani takomillashtirish va barcha ishlab chiqarish omillaridan yanada samarali foydalanib mehnat unumdarligini oshirish orqali ta'minlanadi.

### **1.1-jadval**

#### **Iqtisodiy o'sish turlari**

<b>Iqtisodiy o'sish turlari</b>	
<b>Ekstensiv iqtisodiy o'sish</b>	<b>Intensiv iqtisodiy o'sish</b>
Ishlab chiqarish omillari miqdorini avvalgi texnikaviy darajani o'zgartirmasdan oshirish	Ishlab chiqarish omillari sifatini takomillashtirish
Ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligi oshishining yo'qligi	Ishchilar chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligining oshishi
Ishchilar sonining oshishi	Ishchilar malakasining oshishi
Kapital qo'yilmalarning oshishi	Tejamkorlik mexanizmi
Ishlayotgan xom-ashyo hajmining oshishi	Ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan foydalanish
Mahsulotlar tarkibiy tuzilishining o'zgarmasligi	Ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning usullarini takomillashtirish
Tabiat resurslaridan nooqilona foydalanish	Mahsulotlar assortimentini kengaytirish va sifatini oshirish
Iqtisodiy inqirozning muqarrarligi	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

Manba: muallif tomonidan tuzildi.<sup>11</sup>

Real hayotda esa ekstensiv yoki intensiv o'sish alohida sof holda uchramaydi, balki o'zaro ta'sirlashadi va aralash holatda uchraydi. Ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish turlarining xususiyatlarini tizimlashtirib quyidagicha ifodalash mumkin. Iqtisodiy o'sish doimo iqtisodiy va noiqtisodiy omillar ta'siri natijasida

---

<sup>11</sup> B. A. Abdurakov, A.B. Bektemirov "Korxona iqtisodiyoti" T.: Fan va texnologiya – 2013 ma'lumotlari asosida

kelib chiqadi. Iqtisodiy o'sish omillari deb ishlab chiqarishning real hajmi oshishi, uning samaradorligi va sifatini oshirish imkoniyatlarini aniqlab beruvchi hodisa va jarayonlarga aytildi. Iqtisodiy omillarga foydalanilayotgan resurslar miqdorini oshirish va sifatini takomillashtirish omillari kirsa, noiqtisodiy omillar o'z ichiga siyosiy, harbiy, geografik, iqlimiyl, milliy va madaniy omillarni oladi. Iqtisodiy o'sishga ta'sir qilish mexanizmiga ko'ra esa omillar bevosita va bilvosita omillarga bo'linadi. Bevosita iqtisodiy o'sish omillarini 5 guruhga ajratish mumkin: mehnat resurslari soni va sifati, asosiy kapitalning samaradorligi, tabiiy resurslar miqdori va sifati, boshqaruvning samaradorligi, texnologiyalar samaradorligi.

Bilvosita iqtisodiy o'sish omillariga esa talab va taqsimlash omillari kiradi: bozorlar monopollashuv darajasining pasayishi, ishlab chiqarish resurslari narxlarining pasayishi, soliqlar darajasining pasayishi, kredit olish imkoniyatining kengayishi va boshqalar.

Iqtisodiy o'sish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Shu sababli uni baholash uchun qandaydir bitta ko'rsatkich kifoya qilmaydi, muayyan ko'rsatkichlar tizimi talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlar tizimida jismoniy va qiymat ifodasidagi ko'rsatkichlar farqlanadi.

#### **Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy o'sishning asosiy qiymat ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:**

YAMM (SMM) yoki milliy daromad hajmining real ko'payishi;

YAMM (SMM) yoki milliy daromadning aholi jon bosh hisobiga o'sishi;

YAMM (SMM) yoki milliy daromadning iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ortishi;

Iqtisodiy o'sishni aniqlashda har uchala ko'rsatkichdan ham foydalanish mumkin, lekin ularning ahamiyati turlicha.

Masalan: agar diqqat markazida iqtisodiy potensial muammosi tursa, birinchi ko'rsatkichdan aniqlash ko'proq mos keladi alohida mamlakat va hududlardagi aholini turmush darajasini taqqoslashda, ko'proq ikkinchi ko'rsatkichdan

foydalanimi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda uchinchi ko'rsatkichga ustivorlik beriladi.

Odatda iqtisodiy o'sish % (foiz) da o'sishning yillik sur'ati sifatida aniqlanadi. Masalan, agar o'tgan yili real YAMM 60 mld. so'mni va joriy yilda 70 mld. so'mni tashkil qilgan bo'lsa o'sish sur'atini joriy yildagi real YAMM hajmiga bo'lism yo'li bilan aniqlash mumkin. Bu holda o'sish sur'ati 16,6%ni ( $70/60 * 100$ ) tashkil qiladi.

**Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini xarakterlovchi** ko'rsatkichlar ham mavjud bo'lib, ulardan asosiyлari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, mehnat unumdarligi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda masalasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilar hisoblanadi.

**Mikrodarajada iqtisodiy o'sishning qiymat ko'rsatkichlariyoki** ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

- ishlab chiqarish vositalarining rivojlanish darajasi, ya'ni uning unumdarligi.
- xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi.
- ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat.
- mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilip ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

Iqtisodiy o'sishning jahon amaliyotida qo'llaniladigan boshqa ko'rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi hisoblanadi. U tarmoqdar bo'yicha hisoblab chiqilgan YAMM ko'rsatkichi asosida tahlil qilinadi. Bunda xalq xo'jaligining yirik sohalari, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi nisbat ham o'rganiladi.

Iqtisodiyot fani rivojlanishida iqtisodiy o'sish nazariyalari va modellarini takomillashtirish hamda ulardan milliy iqtisodiyotimiz rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishda foydalish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, iqtisodiy rivojlanishning quyidagi ustuvor yo'naliшlarida tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi: iqtisodiy o'sishni ta'minlashda mavjud barcha rezerv va imkoniyatlarni safarbar etish, sanoat sohasida ilg'or texnologiyalarga asoslangan

ishlab chiqarishni tashkil etish va investitsiyalarni oshirish, raqobat muhitini shakllantirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, modernizatsiya qilish, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishchora-tadbirlari muhimdir.

## **1.2. Korxonalarни rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi;**

Mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lgankorxonalarни rivojlantirish ko'plab omillarga bogliq bo'lib, bugungi kunda rivojlangan chet el mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'rni beqiyosdir. Bunda ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rinalarini yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Yana xorij tajribasidan shu narsa ma'lumki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biridir.

Hozirgi kunda dunyodagi eng yirik 20 iqtisodiyotning biri bo'gan KoreyaRespublikasi ham o'zining iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lida ichki va tashqiinvestitsiyalardan samarali foydalangan. Birgina, 2010 yilda KoreyaRespublikasiga kiritilgan chet el investitsiyalar hajmi 13 milliard AQSh dollarinitashkil etgan.<sup>12</sup>

Milliy iqtisodiyotni rivojlanishi, qo'shimcha ish joylari yaratish, ishlabchiqarilgan mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishda, shuningdek zamonaviytexnologiyalar rivojlanishida katta ahmiyatga ega bo'lgan xorijiy investitsiyalarnimamlakatga jalb qilish masalasiga Koreya Respublikasi juda katta ahamiyatberadi.Koreya Respublikasi hukumati rivojlanishning yangi modelini

---

<sup>12</sup>[www.koreainvest.co.kr](http://www.koreainvest.co.kr) - Годовойстатистическийочёт

taklif etdi, buo`z ichiga ish amaliyoti sifatini oshirishdan, xalqaro standartlargacha olib chiqish,mehnat resurslari va texnologiyalarni rivojlantirish va institutsion tizimningsamarasini oshirishdan iborat. Mamlakat rahbariyati islohatlar yo`lidan bormoqdava kelgusida ham moliya va korporativ sektorda tizimni yangilash ishlarini olibborish tarafdiridir, shu bilan bir vaqtida, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi egiluvchanmakroiqtisodiy siyosatni amalga oshirib kelmoqda. Koreya Respublikasiningmaqsadi, o'tmishtga ildiz otgan muammolarni hal etib, XXI asrga mos keluvchi,rivojlangan iqtisodiy tizim tuzishdan iborat.

Shunga muvofiq, birgina 2012 yil mart oyi holatigaKoreya Respublikasiga kiritilganinvestitsiyalar hajmi 1 milliard 535 million AQSh dollariga o'sib va jami 75milliard 479 million AQSh dollarini tashkil etgan.<sup>13</sup>

Koreya Respublikasi iqtisodiy rivojlanishiga asosiy investitsiya kiritgan mamlakatlarAQSh, Yaponiya, Yevropa Hamjamiyati, Xitoy, Singapur va boshqalar. Ushbumamlakatlar investitsiyalari industrial model qurish imkoniyatini yaratib, keljakdaKoreya Respublikasining yetakchi mamlakatlar qatoriga olib chiqdi. Bugungi kundagi jahonga mashhur “Samsung” va “Doosan” kabi korporatsiyalar aynan mana shunday investitsiyalar samarasi hisoblanadi.

Keyingi yillarda, 1980-yildan boshlab,Koreya Respublikasining o'ziinvestor sifatida ko'p mamlakatlarga o'z investitsiyalarini kiritmoqda. Ushbuinvestitsiyalar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hisoblanib, yirik loyihalarga,transmilly kompaniyalarni rivojlantirishda, boshqa mamlakatlarda qo'shmakorxonalar yaratishga va boshqa mamlakatlarni yuqori darajali texnologiyalar bilanta'minlashga yo'naltirilmoqda.

Ayniqsa, Koreya Respublikasi, bugungi kunda, O'zbekistonning tenghuquqli sherigi hisoblanib, O'zbekistonning yetakchi sohalarini rivojlantirishda,yuqori darajali texnologiyalarni joriy qilish uchun investitsiyalarini kiritmoqda.

---

<sup>13</sup>[www.polpred.com](http://www.polpred.com) - Обзор ИноСМИ

O'zbekiston Respublikasida Koreya Respublikasidan jalg qilinayotgan investitsiyalar yordamida "Jeneral Motors Pavertreyn O'zbekiston" qo'shmakorxonasiда avtomobil dvigatellarini, "Zenit Elektroniks" qo'shma korxonasiда energiya tejovchi lampalar, "Samsung" rusumidagi kir yuvish mashinalari, "NeoSanlayt" qo'shma korxonasiда maishiy gaz plitalari, sovutgichlar, "Rav Ekspress"(Toshkentshahri) mas'uliyati cheklangan jamiyatida maishiy elektrotexnika uchuntozalagich mis trubkalar, "Vayt Meshin Teknoloji" (Nukus shahri) qo'shmakorxonasiда maishiy elektr chang yutgichlar, "Avtosanoatplast" (Chust shahri) mas'uliyati cheklangan jamiyatida avtomobillar uchun injeksion quyish uslubiyordamida plastik detallar, avtomobillar uchun rezina zichlagichlar (Andijonshahri), "O'zkabel" ochiq aksiyadorlik jamiyati qo'shma korxonasi va "Andijonkabel" qo'shma korxonasiда yangi turdag'i kabel-o'tkazgich mahsulotlar, "O'zmetkombinat" ochiq aksiyadorlik jamiyatida elektr uzatmalar uchun ko'pfunksiyali energiya tejovchi qurilmalar, avtomobil simlari, diodli yorug'liklampalari, kosmetika mahsulotlari, gigiyena vositalari ("Navoiy" erkin industrialiqtisodiy zonasiga) va boshqa qator mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha yangiyuqori texnologik quvvatlar ishga tushirildi.

2016-yilda O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rta sidagi ikki tomonlamatovar ayirboshlash hajmi 1 milliard dollardan oshdi. 2017-yilga kelib Koreya Respublikasining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalg etilgan investitsiyalari hajmi 7 milliard dollardan oshdi.<sup>14</sup>

1980 yildan 2010 yilgacha bo'lgan Koreya Respublikasining tashqi investitsiyalari hajmi 142,1 milliard AQSh dollarini tashkil qiladi. ularni mintaqalar bo'yicha quyidagi ko'rinishda taqsimlash mumkin:

Osiyoga 66,54 milliard AQSh dollari – chunki, bu mintaqada Koreya Respublikasining yirik moliyaviy hamkorlari sanaladigan Xitoy Xalq

---

<sup>14</sup> официальный сайт министерства внешних экономических связей, инвестиций и торговли республикиузбекистан <http://mfer.uz/>

Respublikasi, Yaponiya, Gongkong bo'lib, shuningdek, asosan tabiiy resurslardan foydalanganholda ishlab chiqarish sohasi bo'yicha Markaziy Osiyo mamlakatlari bilanmoliyaviy hamkorligi asosiy o'rinni tutadi.

Yaqin Sharqqa 21,6 milliard, Shimoliy Amerikaga 37,28 milliard, Yevropaga 20,28 milliard, Markaziy va Janubiy Amerikaga 10,12 milliard, Afrikava Okeaniyaga 5,28 milliard AQSh dollari miqdorida to'g'ri keladi. Bu yerda hamsohalar bo'yicha taqsimlanishini ko'radigan bo'lsak, Koreyaning to'g'ridan to'g'riinvestitsiyalari, asosan, ishlab chiqarish, ulgurji va chakana savdo, qazib chiqarish, moliya, ko'chmas mulk va hizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keladi.

So'ngi ikki yildan beri Koreya Respublikasi Vietnam iqtisodiyotining yirikinvestori hisoblanadi. 2011 yilga qadar Koreya Respublikasi Vietnamga 1 milliard AQSh dollari miqdorida iqtisodiy yordam ko'rsatdi. Hozirda Koreyaning qurilish korxonalari Vietnamda 70ga yaqin loyihalarni amalga oshirishmoqda vaularning umumiy qiymati 14 milliard AQSh dollari tashkil etadi. Bunga 2008 yilda Koreya hukumati tomonidan qurilish kompaniyalarni qo'llab quvvatlash fondining tashkil etilishi sabab bo'ldi. Ushbu fond hajmi 1,9 milliard AQSh dollarini tashkiletib, u koreys qurilish korxonalarining chet eldagi loyihalarni qo'lga kiritishlarigayordam berishdan iboratdir.<sup>15</sup>

Jahonnning ko'plab taraqqiy etgan davlatlari iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishi ortidan rivojlanishda yetakchi o'ringa chiqqaniga guvoh bo'lish mumkin. Bugungi kunda sanoatlashganlik nuqtai nazaridan karvonboshilikni almashib kelayotgan AQSh va Xitoy tajribasida ham bu holat muhim ahamiyatga molikdir. Mazkur davlatlar o'z investitsiya jozibadorligi ortidan sanoatidagi sohalarda yetakchi bo'lgan korxonalarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilishda foydalanib kelmoqda.

---

<sup>15</sup> www.polpred.com- Обзор ИноСМИ, данные от МИД РФ

Dunyoda yetakchi ishlab chiqarish korxonalariga ega davlatlar tajribasini o'rganish natijasida ular investitsiyani jalb qilish ortidan faoliyatlarini modernizatsiya qilishga, zamonaviy texnolgiyalarni o'zlashtirishga, yaratilayotgan mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlashga erishgan. Aynan mana shu sababli respublikamizda ham inestitsiya jalb qilish ortidan korxonalarini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Jahonning yana bir iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakati Yaponiya tajribasida korxonalarini rivojlantirishga ilmiy salohiyatni yuksaltirish orqali yondoshilishiga guvoh bo'lish mumkin. Yaponiyada ilmiy tekshirish ishlariga qariyb 100 mldr AQSh dollari hajmida mablag' sarflanadi va bunda xususiy sektor yetakchi o'ringa ega.<sup>16</sup> Ajratilayotgan bunday yirik hajmdagi mablag' mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim omili bo'lgan sanoat ishlab chiqarishni yuksaltirishga zamin yaratdi.

Yaponiyada zamonaviy axborot texnologiyalari – robota-texnika jixozlarini, aqlii texnikalarni ishlab chiqarishga jalb etish yuqori o'rinni egallagan. Bu orqali korxonalar ishlab chiqarish jarayonini yuqori darajada avtomatlashtirish imkoniyatiga ega bo'lib, mehnatga haq to'lash va bir qancha omillar evaziga rivojlanishni ta'minlab kelmoqda.

Korxonalarning bugungi kundagi ko'rinishga kelib yuksak darajada taraqqiy etishida o'ziga xos yapon boshqaruv uslubining o'rni beqiyosdir. Yapon xalqi o'zining mas'uliyatliligi va mehnatsevarligi bilan nom qozongan. Aynan mana shu hislat tufayli boshqaruv jarayonida ham ular o'zaro bahamjihat ish yuritib yuksak taraqqiyot marralarini zabit etib kelmoqdalar.

Bugungi kunda jahonning eng sanoatlashgan mamlakatlari qatorida turuvchi Yaponiya aqlii texnologiyalarni butun mamlakat miqiyosida keng qo'llangani holda korxonalarini jadal rivojlantirishni davom ettirmoqda.

---

<sup>16</sup>[www.uz.wikipedia.org](http://www.uz.wikipedia.org) ma'lumotlari asosida

Yuqorida tilga olib o'tilgan mamlakatlar sanoat korxonalarini rivojlantirishning investitsiya asosida ularni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda ilm fan yutuqlaridan keng foydalanish kabi usullaridan foydalananayotgan bir paytda, bunday rivojlantirish yo'nalishlaridan foydalanib korxonalarni rivojlantirish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan chora-tadbirlarni sirasini orttirish korxonalarini rivojlantishning muhim asosi bo'ladi.

### **1.3. Korxonalar rivojlanish yo'nalishlarining huquqiy asoslari;**

Dunyo amaliyotida tadbirkorlikni rag'batlantirish jamiyat va davlat manfaati uchun zaruriy me'yor hisoblanadi. Chunki, tadbirkorlik davlat hokimiyati organlarining doimiy qo'llab-quvvatlashi va e'tiboriga muhtoj bo'ladi. Shu bilan birga, davlatning vazifasi kichik va o'rta biznes korxonalariga moliyaviy, texnik va boshqa resurslarni berish va ularni qanday bo'lmasin qo'llab-quvvatlashgina emas, balki bozor sharoitida ularning o'zlarini tutib olishlari va rivojlanishlari uchun huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratishdan iborat bo'ladi.

Jahonning ko'plab mamlakatlarida – Yevropa, Yaponiya, AQSh, Osiyo va Lotin Amerikasi qit'asi davlatlarida tadbirkorlik rivojlanishni qo'llab-quvvatlash oqimi ketmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ham bu holat ayniqsa, xususiyatlidir.

O'zbekistonda tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash holatiga nazar tashlansa, mamlakatimiz o'z iqtisodiy islohatlarini olib borish jarayonida tobora shunga amin bo'lmoqdaki, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirmay turib, ishlab chiqarishning pasayishini oldini olish va makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, xo'jalik yuritish tizimida va uning tarmoqlarida iqtisodiy va moliyaviy jihatdan mustahkamlikka erishib bo'lmaydi. Tadbirorlikning rivojlanishi ish joylarini yaratishga, bozorni tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirishga, byudjetni soliq bilan ta'minlashda asosiy omil bo'ladi.

Shu jihatdan, O'zbekistonda tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning maqsadi bo'lib, tadbirorlik muhitini shakllantirish va rivojlantirish

uchu zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ya’ni kichik va o’rta biznesni qo’llab-quvvatlash va himoya qilish, ularga faoliyat yuritishlarida erkinlik berish, aniq huquqiy kafolat bilan ta’minlash hisoblanadi.

Tadbirkorlik o’z huquqiy kafolati to’g’risidagi davlat ko’magini bozor islohatlari boshlangan davrdayoq, ya’ni 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik to’g’risida”gi Qonuni bilan oldi. So’ngra, Respublika Prezidentining 1995 yil 5-yanvardagi “Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko’rsatish va uni rag’batlantirish to’g’risida”gi Farmoni va 1995 yil 25-dekabrdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag’batlantirish to’g’risida” qonuni qabul qilindi. 2000 yil 25-mayda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida”gi qonun ham bu ishda katta ko’mak bo’ldi. Bozor iqtisodiyoti islohatlarining chuqurlashib borish sharoitida kichik va xususiy tadbirkorlikka oid qonunchilikda ham takomillashtirilgan qoidalar kiritilishi zarurligidan kelib chiqib 2003 yil 11-dekabrda “Xususiy korxona to’g’risida”gi qonun qabul qilindi. Bu qonunlarning qabul qilinishi, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlanishi iqtisodiy islohatlarning muhim yo’nalishi ekanligini bildiradi hamda raqobatni rivojlantirishga turki berishi, iqtisodiyotning unumsiz jihatlarini bartaraf etish, mamlakat hududlarida iste’mol bozorlarini tovar va xizmatlar bilan to’ldirish, O’zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash, ish bilan band bo’lishlik muammolarini yechishni belgilaydi.

Hozirgi vaqtda respublikada tadbirkorlik faoliyatini yuritishning va uni qo’llab-quvvatlashning bir butun davlat-huquqiy boshqaruving tizimi vujudga keldi. Tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash va rivojlantirishning harakatdagi davlat boshqaruв organlariga Davlat mulk qo’mitasi va uning hududiy tuzilmalari, hokimiyat mahalliy organlari kiradi. Bu boradi tadbirkorlikka ko’mak beruvchi infratuzilma ob’yektlari, tarmoqlari – axborot maslahat markazlari, biznes-inkubatorlar, innovatsion-texnologik markazlar, auditorlik, konsalting, injiniring, huquqiy xizmatlar ko’rsatish firmalari ham o’z faoliyatlarini yuritadilar. Bu kichik

biznes sub'yektlari faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirishning huquqiy jihatlari va muhim strategik yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlarida batafsil ochib beriladi. Bu Farmonlarga binoan, Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan aniq tadbirlar belgilanadi va tashabbus ko'rsatishga keng imkon yaratadi.

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonlarini tezlashtirish maqsadida, hamda davlat, xo'jalik va jamoat tuzilmalarining faoliyatida qulay tadbirkorlik muhitini yaratishda aniq muvofiqlashtirish ishlarini ta'minlash uchun 1995 yil avgustda kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat dasturi qabul qilindi.

Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish davlat dasturi aholining ish bilan band bo'lishiga ko'maklashuvchi davlat dasturi hamda umum davlat miqyosidagi iqtisodiy muammolarni yechish kabi vazifalar bilan ham bog'liqdir.

Bu dastur tadbirkorlikni rivojlantirishning qonuniy va me'yoriy negizini takomillashtirish va rivojlantirish kabi vazifalarni hal qilishda davlat ko'magini ko'rsatishni ko'zda tutadi. (1.1-rasm)

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat boshqaruva organlariga tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning umumiyligi, ustuvor yo'nalishlari va usullarini aniqlash, davlat byudjetdan tashqari fondlari hisobidan 50 foizdan kam bo'limgan moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanadigan davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, soliq va boshqa to'lovlar to'lashda kichik va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga imtiyozlar belgilash vazifalari yuklangan.



### **1.1 – rasm. Kichik biznesni rivojlantirish dasturi.**

O’zbekistonning Konstitusiyasi xususiy tadbirkorlikni ishonchli tarzda himoya qiladi, xususiy mulkchilikning dahlsizligiga qat’iy kafolat beradi. Huquqiy kafolatlarni o’rnatalishi ma’murlarning tadbirkorlar xo’jalik tijorat faoliyatiga aralashuvini chegaralaydi, xususiy mulkchilik huquqi va dahlsizligini, shu jumladan talon-taroj qilishlik va zo’ravonliklardan himoyalanishini ta’minlaydi.


Davlat tomonidan tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlashning tashkiliy jihatdan ta’milanganligi O’zbekiston Respublikasida markaziy va mahalliy boshqaruva organlari o’rtasidagi vakolatlarning belgilab qo’yilganligiga asoslanadi. Davlat boshqaruva organlari zimmasiga kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag’batlantirish davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etish tushsa, hokimiyatning mahalliy organlari esa o’z hududlarida kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash hududiy dasturlarini ishlab chiqadilar. Buning ijrosini ta’minlash borasida respublikamiz mahalliy hokimiylatlari qoshida tadbirkorlikni rivojlantirish ishlari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi Kengashlar tuzilgan. Ushbu Kengash vazifasiga kichik, o’rta va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha O’zbekiston Respublikasi

Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining joylarda bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish, barcha tarmoqlar ishlarini muvofiqlashtirish, kichik va o'rta biznes, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish hamda tadbirkorlik sub'yektlarining qonuniy huquqlarini himoya qilish va hokazolar kiradi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 9-moddasining talablariga asoslanib, viloyat, tumanlar va shaharlar hokimliklar kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning hududiy dasturlarini ishlab chiqqanlar. Har bir joriy yil uchun maxsus tadbirlar ham tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni tubdan isloh qilishning beshta muhim tamoyilidan ikkinchisi quyidagicha ta'riflanadi: “Murakkab o'tish davrida davlatning o'zi bosh islohotchi bo'lishi zarur. Davlat butun xalqning manfaatlarini ko'zlab, islohotlar jarayonining tashabbuskori bo'lishi, iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi yo'nalishlarini belgilashi, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va suveren davlatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqishi va izchil ro'yobga chiqarishi kerak”.

Tadbirkorlik faolyatining amal qilishini tadqiq etishlar, hamda rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini shakllanishi va rivojlanib borish jarayonida davlat ishtirokini amalga oshirilishini quyidagi uch (1.2 – rasm) bosqichlarga bo'lismumkin.



### 1.2 – rasm. O'zbekistonda kichik biznesning shakllanish bosqishlari.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishida davlat ishtirokini tadqiq etishlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtida respublikada bu jarayon bo'yicha yuqorida belgilangan ikkinchi bosqich vazifalari hal etilmoqda, ya'ni bozor infratuzilmasining tiziminingshakllanishi yo'lga qo'yilib borilmoqda, yalpi ichki maxsulot tuzilmasida kichik va xususiy biznes ulushining o'sishi kuzatilmoqda, xususiy sektor va tadbirkorlik faoliyatining hamma shakllarini miqdor jihatdan o'stirish ta'milanmoqda.

Shu bilan birga, tadbirkorlik sub'yektlariga nisbatan ma'muriy ta'sir o'tkazishlar, jumladan, ularning xo'jalik faoliyatiga aralashishlar, tekshirishlar va ro'yxatdan o'tkazish rasmiyatchiligi anchagina qisqardi. Hozirgi vaqtida bu ishni bitta idorada, ta'bir joiz bo'lsa "bitta darcha"ning o'zida to'la amalga oshirish tartibi joriy etildi.

Hokimiyat organlari tomonidan ilmiy-ishlab chiqarish hamkorligi uchun shart-sharoitlar tug'dirish ilmiy-tadqiqot, loyiha konstrukturlik tashkilotlari va

sanoat korxonalari o'rtasidagi uzviy texnologik o'zaro aloqadorlikni ta'minlash bilan birga iqtisodiy o'sish uchun ham zamin yaratishi mumkin. Moliyaviy jihatdan baquvvat korxonalar buyurtmalarini ilmiy-tadqiqot va loyiha-konsruktorlik byuolarida amalga oshirilishi tovar ishlab chiqaruvchilar mahsuloti raqobatdoshligini oshirishga imkon yaratadi.

Ilmiy tadqiqot ishlari natijasida mahalliy xom ashyo negizida import o'rnini bosadigan kam xarajatli mahsulot ishlab chiqarish, hamda xom-ashyo, materiallar, kimyoviy reagentlar, ikkilamchi resurslar, ishlab chiqarish texnologik chiqindilarini tadqiq qilish bilan texnologik-ishlab chiqarish jarayonlarida katta yutuqlarga erishish mumkin bo'ladi. Ilmiy-tadqiqot yo'naliishlari tadbirkorlikning ishlab chiqarish tuzilmalarini eksport uchun raqobatdosh mahsulotlar va import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishi uchun ham qaratilishi zarur. Bu tadbirlar natijasida respublikamiz bozorida o'z ixtisoslashgan o'rniga ega bo'lган hududiy xo'jalik majmuini shakllantirish uchun asos yaratiladi. Buning uchun esa, ishlab chiqarish tarmoqlarida ilmiy-amaliy tadqiqotlarning o'tkazilishida muvofiqlashtirish ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yilishi taqozo etiladi.

Korxonalarni iqtisodiy rivojlantirishning muhim asosini tashkil qiluvchi omillardan yana biri - bu investitsiyalar hisoblanadi. Shu sababli, Mamlakatda investitsion munosabatlarni amalga oshirish va uning huquqiy tizmini tashkil etuvchi muayyan huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi,<sup>17</sup> "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi<sup>18</sup> yangi tahrirda, "Chet ellik investorlar huquqlarning kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Bu qonunlarda investitsion munosabatlarga taalluqli barcha jarayonlarga va tushunchalarga aniqliklar kiritilgan. Investitsiya faoliyatining sub'ektlari va ob'ektlari, investitsion faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinish masalalari, xorijiy investorlarning huquq va burchlari, mol-mulk kafolatlari va imtiyozlari

---

<sup>17</sup>O'zbekistonning yangiqonunlari. 21-son. T.: "Adolat". 1998 yil. 265 b

<sup>18</sup>O'zbekistonning yangiqonunlari. 19-son. T.: "Adolat". 1998 yil. 532 b

kabilar aniq belgilab berilgan.

Biroq, bu kabi mamlakatda investitsion faoliyatni rag'batlantiruvchi qonuniy-huquqiy bazaning mavjudligi bozor munosabatlarining rivojlanganligini belgilamaydi. Bugungi kunda mamalakatda investitsion muhitni tubdan yaxshilash chora-tadbirlarini amalga oshirmoq zarur.<sup>19</sup> Davlat mazkur qonunlar doirasida investitsion faoliyatning turli sub'ektlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solib turadi. Boshqacha qilib aytganda, bu tartibning qanday o'rnatilganligiga qarab u yoki bu mamlakat xorijiy investitsiyalarni jalg etish uchun qanday huquqiy muhit yaratilganligini aniqlab olish mumkin.

O'zbekistonda investitsion munosabatlarni tartibga solishining yaratilgan qonuniy asoslari mos ravishda tadbirkorlik to'g'risida O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik to'g'risida"<sup>20</sup>gi Qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari<sup>21</sup> bilan to'ldirilib borilmoqda.

"Tadbirkorlik to'g'risida"<sup>22</sup>gi Qonun O'zbekistonda tadbirkorlikni faoliyat ko'rsatishning va rivojlantirishning huquqiy asoslari hamda tadbirkorlarning iqtisodiy va huquqiy erkinliklarini kafolatlashni aniqlab berdi. Shuningdek, ularning huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Bu qonun tadbirkorlarning boshqa korxonalar, tashkilotlar va davlat boshqaruvi organlari bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soladi va mulkchilik shakllarini erkin tanlashni, xo'jalik yuritishni, faoliyatni teng huquqli asosda amalga oshirishni, o'zaro hamkorlik va erkin raqobatni ta'minlashni o'z ichiga oladigan shartlarning shakllanishiga yordam beradi.

"Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"<sup>23</sup>gi Qonun Respublikada tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy tamoyillari va tartiblarini belgilab beradi hamda tashqi iqtisodiy aloqalar ishtirokchilarining mulkclarini, mulkchilikning

---

<sup>19</sup> Xalq so'zi 2005 yil 20 iyul. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisi to'g'risida AXBOROT

<sup>20</sup> O'zbekistonning yangi qonunlari. 16-soni. T.: "Adolat", 1997. 427 b.

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari. 1995-yil 5 yanvardan 2000-yil 1 yanvargacha. T.: "Adolat" 2000. 80-b.

<sup>22</sup> O'zbekistonning yangi qonunlari. 17-soni. T.: "Adolat", 1997.

qanday shaklida bo'lishidan qat'iy nazar, manfaatlarini va huquqlarini xalqaro huquqning qabul qilingan umumiy me'yorlariga muvofiq ravishda himoya qilishni ta'minlaydi. Bu qonun O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy tizimiga uyg'unlashishi uchun huquqiy asosni yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"<sup>23</sup> va "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"<sup>24</sup> Qonunlari investitsiyalar to'g'risidagi qonunchilikning yadrosini tashkil qiladi.

Ular O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyalarni amalga oshirishning huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy asoslarini yaratish, chet el sarmoyalari soliq tartiblarini belgilab beradi, xorijiy investorlarning samarali faoliyat ko'rsatishini kafolatlaydi va Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishga ko'maklashish, uni jahon xo'jalik aloqalariga kiritish maqsadida chet el moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa resurslarni jalb etishga va ulardan foydalanishga qaratilgan.

"Chet el investitsiyalari to'g'risida"<sup>25</sup> Qonunning asosiy vazifalari – O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishga va uning xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirish yo'li bilan jahon xo'jalik tizimiga uyg'unlashuviga ko'maklashishdan, shuningdek, xorijiy moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa zaxiralarni, zamonaviy texnologiyalarni va boshqaruva tajribalarini jalb qilish hamda ulardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yishdan iborat.

Xorijiy investitsiyalar va xorijiy investorlarning ma'lum kategoriyalarini himoya qilish chora-tadbirlari va ularni kafolatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>26</sup>gi Qonunning asosi hisoblanadi.

---

<sup>23</sup>O'zbekistonning yangi qonunlari. 19-son. T.: "Adolat". 1998. 532 b.

<sup>24</sup>O'zbekistonning yangi qonunlari. 16-son. T.: "Adolat". 1997. 427 b.

<sup>25</sup>O'zbekistonning yangi qonunlari. 21-son. T.: "Adolat". 1998. 532 b.

<sup>26</sup>O'zbekistonning yangi qonunlari. 19-son. T.: "Adolat". 1998 y. 532 b.

Mazkur qonunning 3-moddasida, davlat boshqaruv idoralari va davlat hukumat organlari joylarda chet el investitsiyalarining O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq amalga oshirilgan xo'jalik faoliyatlariga aralashish huquqiga ega emaslar, deb aytilgan.

Qulay investitsion muhitni yaratishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari tarkibida eng muhim sifatida O'zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni hisoblanadi.

Yurtimizda investitsiya muhitini yanada barqarorlashtirishga tobora katta e'tibor berib kelinmoqda, xususan o'tgan 2017-yilda prezidentimizning “O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida” farmoni bu boradagi diqqatga sazovor qadam bo'ldi. Bu qo'mitaning faoliyati natijasida investitsiyalarning iqtisodiyotimizga jalb etilishiga yanada qulay sharoit yaratilib kelinmoqdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bizning nazarimizda, O'zbekistonda tadbirkorlik va korxonalarda ishlab chiqarish muhitini shakllantirish va rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar, ya'ni kichik va xususiy biznesni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, ularning faoliyat yuritishlarida erkinlik, aniq huquqiy kafolat bilan ta'minlanganlik zaminlari yaratilgan va uni amalga oshirishning qonuniy va me'yoriy jihatdan mustahkamlangan tizimi vujudga keltirildi. Qo'yilgan maqsadning yechimi esa mazkur tizimning samarali ishlashidadir.

Tadbirkorlik sub'yektlari, xususan, korxonalarni rivojlantirishda mamlakatimizda ulkan huquqiy asos mavjud. Olib borilayotgan bunday ahamiyatli siyosat ular rivojida mustahkam tayanch bo'lib kelmoqda. Bu yo'ltagi davlat rahnamoligi uzoq yillar davomida davom etishi korxonalar rivojlanishining doimiy vositasi bo'lib qoladi.

## **II-BOB “AGROKVANT” MCHJNING 2015-2016-2017 YILLARDAGI HOLATINI BAHOLASH**

### **2.1 “AGROKVANT” MCHJning xo’jalik yuritish potensiali tahlili**

“AGROKVANT” MChJ haqida umumiy ma’lumot beradigan bo’lsak:

2012-yil iyun oyida tashkilotchi rahbar B.Ahmedov boshchiligidagi “AGROKVANT” MCHJ tashkil etildi. Bu korxona Jizzax viloyati, Jizzax shahrida joylashgan bo’lib, Jizzax shahar hokimligi huzuridagi tadbirkorlik sub’yektlarini ro’yxatdan o’tkazish inspeksiyasi tomonidan 2012-yilning 18-iyunida №469 sonli raqam bilan ro’yxatdan o’tkazilgan.<sup>27</sup>

Mas’uliyati cheklangan “AGROKVANT” jamiyatni quyidagi jismoniy shaxslar tomonidan tuzilgan ta’sis shartnoma asosida tashkil topgan:

-Isroilova Gulbahor Ziyotovna (pasport: CT 0304781 Jizzax viloyati Jizzax shahar IIB tomonidan 15.07.2010 yilda berilgan, uy manzili Jizzax shahri Qassoblik mahallasi Ulug’bek ko’chasi 54-uy)

-Ahmedov Baxtiyor A’zamovich (pasport: CG 0929632 Jizzax viloyati Jizzax shahar IIB tomonidan 27.11.2007 yilda berilgan, uy manzili Jizzax shahri Qassoblik mahallasi Ulug’bek ko’chasi 54-uy)

Jamiyatning manzili: Jizzax shahar Qassoblik mahallasi Ulug’bek ko’chasi 54-uy.

Jamiyat barcha turdagiligi qurilish faoliyati, qurilish montaj ishlarini bajarish, santechnika, yo’l qurilishi, artezyan quduqlar qazish, ichimlik suvi va kanalizatsiya ishlarini bajarish, melioratsiya va obodonlashtirish ishlarini tashkil etish, asfalt yo’l va ko’priklar qurish, elektromontaj ishlarini bajarish, alumin va plastik profillardan eshik, derazalar, romlar, vitrajlar ishlab chiqarish, harbiy ob’yektlarni qurish, ta’mirlash ishlarini bajarish, nasos stansiyalariga xizmat ko’rsatish va ularni ta’mirlash, qurilish materialllari ishlab chiqarish va sotish, poletilin

---


<sup>27</sup>“AGROKVANT” MChJ nizomi matnidan

mahsulotlar, quvurlar idishlar, plyonkalar ishlab chiqarish, barcha turdag'i polietilen quvurlarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatishni tashkil qilish bilan shug'ullanadi.

## **2.1-rasm.**

### **“AGROKVANT” MChJ ning tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi.**

28




<sup>28</sup>“AGROKVANT” MChJning nizomi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

## **Korxonaning iqtisodiy salohiyati tarkibi**

Korxonaning iqtisodiy salohiyati (potensiali)ni (Kis) baholashda eng avvalo iqtisodiy tahlilning maqsadi va vazifasidan kelib chiqib, uni qiymati va xarajati nuqtayi nazaridan aniqlash lozim. Ushbu ko'rsatkichning to'liq qivmatini baholashda asosan buxgalteriya balansi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Buning uchun buxgalteriya balansidagi asosiy vosita (Av), aylanma mablag'lar (Am) va nomoddiy aktivlarning (Na) umumiyligi summalarini hamda hisob-kitob orqali aniqlangan ishchi va xizmatchilaming pulda ifodalangan qivmatini (Xq) olish mumkin. Shunday qilib, korxonaning iqtisodiy potensialini tahlil qilishda xo'jalik faoliyatida sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonida ishtirok etadigan barcha moddiy resurs (asosiy va aylanma mablag')lar, nomoddiy aktivlar va mehnat resurslari birgalikda mushtarak holda o'rganiladi. Moddiy resurslar va nomoddiy aktivlar to'g'risidagi ma'lumotlar buxgalteriya balansida ifodalanadi, ammo mehnat resurslari esa bu hisobot tarkibida ko'rsatilmaydi.

Bunga qaramay mehnat resurslari korxona iqtisodiy salohiyatini belgilashda muhim omil bo'lganligi sababli uni o'rjanib chiqish muhim va zarurdir.

## Korxonaning iqtisodiy potensiali (salohiyati)




<sup>29</sup>M.Q.Sobirov va boshqalar “Moliyaviy tahlil” korxona iqtisodiy salohiyati tarkibi jadvali asosida muallif tomonidan tuzildi

**2.1-jadval**

**«AGROKVANT» MCHJ ning 2015-2016-2017 yillardagi asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili, (ming so'mda)<sup>30</sup>**

Nº	Ko'rsatkichlar	2015-yil	2016-yil	2017-yil	Farq(+,-)	O'zgarish farqi %
1	Mahsulot sotishdan sof tushum(ming so'mda)	6990750	5679176.79	20809049	+15129873	3.6 barobar
2	Ishlab chiqarish tannarxi	6177250	4849176.3	18948427	+14099250.7	3.9 barobar
3	Mahsulot sotishdan yalpi foyda	813500	830000.49	1860622	+1030621.51	2.2 barobar
4	Debitorlik qarzlari	799858	844086	973075	+128989	115.3
5	Kreditorlik qarzlari	139242	2085972	3763430	+1677458	180.4
6	Xodimlarning o'rtacha soni(kishi)	46	48	48	0	100
7	Hisoblangan jami ish haqi fondi(ming so'mda)	451726	660830	818345	+157515	123.8
8	Har bir xodimga to'g'ri keladigan mahsulot	151972.8	118316.1	433521.8	+315205.6	3.6 barobar


<sup>30</sup>“AGROKVANT” MCHJning 2015-2016-2017 yillardagi statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



“Agrokvant”MChJ ning 2015-2016-2017 yillardagi iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qiladigan bo'lsak, korxonaning 2017 yildagi qurilish-montaj ishlari hajmi 20809049 ming so'm bo'lgan holda o'tgan 2016 yilda mazkur ko'rsatkich 5679176.79 ming so'mni tashkil qilib, ya'ni 3.6 barobar o'sgan. Shunga mutanosib ravishda qurilish-montaj ishlari tannarxi ham o'z navbatida sezilarli oshgani holda, uning ko'rsatkichi 3.9 barobar oshgan, buni xarajat elementlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, uning asosiy ulushi xom-ashyoga sarflangan (sement, g'isht, temir-karkas, yoqilg'i va h.) moddiy xarajatlarga sarflangan. Shuning uchun ham korxona faoliyatida bajarilgan qurilish-montaj ishlari bilan uni yaratishga qilingan qurilish-montaj ishlari o'rtasidagi keskin farq 1.2 barobarni ko'rsatmoqda. O'z o'rnida ta'kidlash kerakki, qurilish-montaj ishlari hajmiga nisbatan uning tannarxi o'rtasidagi nisbat 1.3 barobarga farq qilgani uchun ham yalpi foyda ya'ni daromad ko'rsatkichi ham 1.7 barobarga keskin farq qilmoqda. Asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarda keltirilgan boshqa ko'rsatkichlarni har birini batafsil quyidagi jadvallarda ko'rib chiqamiz.

**«AGROKVANT» MCHJ ning 2015-2016-2017-yillardagi iqtisodiy salohiyati tarkibi tahlili (ming so'mda)**

Nº	Ko'rsatkichlar	2015-yil	2016-yil	2017-yil	Farqi(+,-)	O'zgarishi %
1	Asosiy vositalar qiymati	3994004	5068989	5447689	+378700	107.5
2	Aylanma mablag'lari qiymati	1769569	3748058	6847266.3	+3099208.3	182.7
3	Mehnat potensiali qiymati	451726	660830	818345	+157515	123.8
4	Iqtisodiy potensial (1q+2q+3q)	6215299	9477877	13113300.3	+3635423.3	138.4 <sup>31</sup>



**«AGROKVANT» MCHJ ning 2015-2016-2017-yillardagi iqtisodiy salohiyati tarkibi tahlili (ming so'mda)**


**2.3-jadval**

<sup>31</sup>«AGROKVANT» MCHJ ning 2015-2017 yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

**«AGROKVANT» MCHJ ning 2015-2016-2017-yillardagi iqtisodiy salohiyat  
samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar miqdori holati tahlili,  
(ming so'mda)<sup>32</sup>**

Hajm ko'rsatkichlari						
Nº	Ko'rsatkichlar	2015-yil	2016-yil	2017-yil	Farqi(+,-)	O'zgarishi (%)
1	Hisobot davrining sof foydasi=foyda	345194	355529.9	624300	+268770.1	175.6
2	Daromad solig'ini to'lagunga qadar foyda=daromadlar	345194	355529.9	1080361	+724831.1	3 barobar
3	Mahsulot sotishdan tushgan sof tushum=mahsulot hajmi	6990750	5679176.79	20809049	+15129872.2	3.6 barobar
4	Iqtisodiy potensial	6215299	9477877	13113300.3	+3635423.3	138.4
Nisbiy ko'rsatkichlar						
5	Foydaning daromaddagi hissasi, (1q:2q)%	100	100	57.7	-42.3	57.7
6	Daromadning mahsulot hajmidagi hissasi, (2q:3q) %	5	6.3	5.2	-1.1	85.5
7	Iqtisodiy potensial natijaviyligi, (3q:4q)%	1.12	0.6	1.59	0.98	2.6 barobar
8	Iqtisodiy potensial rentabelligi, (1q:4q)%	0.06	0.04	0.05	0.01	125

<sup>32</sup>«AGROKVANT» MCHJ ning 2015-2017 yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



### «AGROKVANT» MCHJ ning 2015-2016-2017-yillardagi iqtisodiy salohiyat samaradorligiga holati tahlili, (ming so'mda)

2.3-jadvalda korxonaning balans iqtisodiy salohiyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar miqdori tahlili keltirilgan bo'lib, undayangicha ish yuritish sharoitida korxonalar mulkining tarkibini o'rghanish va uni ko'paytirish yo'llarini aniqlash bo'yichaxo'jalik faoliyatining tahlilirejalashtirilgan. Bu jarayondaayniqsa balansga qarab korxona mol-mulki va boyligining tarkibini kuzatish, sof mablag' holatini aniqlash, imkoniyat me'yorini o'lchashga yordam beradi. Odatda, korxona mablag'lariga asosiy vositalar va oborotdan tashqari aktivlar hamda material (me'yorlashtirilgan) aylanma pul mablag'lari kiradi. Bu yerda hisobot davrining sof foydasi, daromad solig'ini to'lagunga qadar foyda, mahsulot sotishdan sof tushum keltirilgan. Bundan ko'rshimiz mumkinki, asosiy vositalar qiymati katta miqdorda o'zgarmagan, lekin korxona aktivlari sezilarli ko'paygan.

2.3-jadvaldan ko'rindaniki, 2017-yildahisobot davrining sof foydasi 2016-yilga nisbatan 175.6%ga o'sgan, lekin korxona 2017-yilda 456061 ming so'm miqdorida foydadan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirgani sababli bu ko'rsatkich o'tgan 2016-yillardagiga nisbatan kam miqdorni tashkil etgan va foydaning daromaddagi hissasi 2017-yilda 42.3 % ga kamaygan. Bu o'z navbatida, daromadning mahsulot hajmidagi hissasi 2017-yilda 2016-yillardagiga nisbatan 14.5% ga kamayishiga olib kelgan. Iqtisodiy salohiyat natijaviylici hamdaiqtisodiy salohiyat rentabelligi mos ravishda 2.6 barobar va

125% ga ko'paygan bunga esa korxona ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan daromadlarni sezilarli oshirish hisobidan erishgan.

Korxonalarining asosiy vositalari ishlab chiqarishdagi o'z ahamiyatiga qarabuch turkumga bo'linadi:

- sanoat ishlab chiqarish vositalari;
- boshqa tarmoqlarning sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalari;
- noishlab chiqarish asosiy vositalari.

Iqtisodiy tahlilda asosiy vositalar mahsulotning ishlab chiqarish jarayonidabajaradigan roli bir xil emas. Shuning uchun ular ikki qismga bo'linadi:

- aktiv (faol) asosiy vositalar;
- passiv (nofaol) asosiy vositalarga kuch beradigan mashinalar va asbob-uskunalar, ish mashinalari va asbob-uskunalar, o'tkazgich jihozlar, o'lchash va tartibga solish asboblari kiradi.

***Hozir eng ilg'or sanoat korxonalarida asosiy vositalarning aktiv (faol) qismining salmog'i 65% ni tashkil qiladi.***

Asosiy vositalarning aktiv (faol)qismining oshirish yollarini quyidagilardir:

- ishlab chiqarish jarayonlarini to'la mexanizatsiyalashtirish vaavtomatlashtirish darajasini oshirish;
- ishlab chiqarish maydonidan oqilonqa foydalanish;
- bino va inshootlarni qurishda qurilish-montaj ishlari tannarxini kamaytirish va hokazolar.


Asosiy vositalaming tarkibi, tuzilishi va harakatini tahlil qilish uchun kerakii ma'lumotlar yillik hisobotning 3-sonli «Asosiy vositalar to'g'risida hisobot»shaklidan olinadi.

Asosiy vositalarnining holatini ifodalovchi jadvaldan shu narsa ma'lum bo'ladiki, korxonada o'tgan 3 yil mobaynida asosiy vositalarning qiymati deyarli o'zgarmasdan qolgani holda 2017-yilda o'tgan 2016-yilga nisbatan undagi o'sish 107.5%ni tashkil etgan. Ammo, korxona aktivlari qiymati o'tgan uch yilda o'sib borib 2017-yilda o'tgan 2016-yilgi miqdoriga nisbatan 140.7%ni tashkil etgan.

**Asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili (ming so'mda)<sup>33</sup>**

<b>Hajm ko'rsatkichlari</b>						
No	Ko'rsatkichlar	2015-yil	2016-yil	2017-yil	Farqi(+,-)	O'zgarishi (%)
1	Asosiy vositalar qiymati	3994004	5068989	5447689	+378700	107.5
2	Barcha aktivlar	5166919	8015393	11281157.3	+3265764.3	140.7
3	Asosiy vositalarning faol qismi	2556162.6	3294842.9	3595474.7	+300631.8	109.1
4	Asosiy vositalarning eskirish qiymati	596654	801654	1013798	+212144	126.5
5	Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	3397350	4267335	4433891	+166556	103.9
6	Ishga tushirilgan asosiy vositalar	3994004	5068989	5447689	+378700	107.5
<b>Nisbiy ko'rsatkichlar</b>						
7	Av.larning umumiy aktivlardagi ulushi, %(1:2*100)	77.3	63.2	48.3	-14.9	76.4
8	Avf qismining umumiy Av.dagi ulushi, %(Av.ning faolligi)(3q:1q)	64	65	66	+1	101.5
9	Av.ning eskirish koiffitsienti,(4q:1q)	0.149	0.158	0.186	+0.028	117.7
10	Av.ning yangilanish koiffitsienti(6q:1q)	1	1	1	0	100
11	Av.ning yaroqlilik koiffitsienti(5q:1q)	0.85	0.84	0.81	-0.03	96.4

<sup>33</sup>“AGROKVANT”MCHJning 2015-2017 yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



## **Asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili (ming so'mda)**

Buning natijasida asosiy vositalarning korxona aktivlaridagi ulushi o'tgan 3 yil mobaynida kamaygan va 2017-yilda o'tgan 2016-yilga nisbatan 76.4%ni tashkil etgan. Asosiy vositalarning eskirish qiymati ko'rsatilgan 3 yil davomida oshib borib 2017-yilda 126.5% ga ko'paygan, buning natijasida yaroqlilik koiffitsienti esa - 0.03 ko'rsatkichga kamayib 96.4% ni tashkil etgan.

**Korxonaning aylanma mablag'lari** —uning aylanma fondlarda, muomalafondlarida va boshqa harakatdagi aktivlarda turgan pul mablag'laridir. Ular asosiy fondlardan farqli o'laroq, to'xtovsiz harakatda bo'ladi. Chunki, bir ishlab chiqarish sikli mobaynida to'liq iste'mol qilinadi, o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazadi, ham buyum - natura ko'rinishida, ham qiymat tarzida tiklanadi.

Ularning ulushi korxonaning umumiy xo'jalik mablag'larida faoliyat sohasiga qarab, 60 - 90 % bo'ladi. Korxonaning moliyaviy va iqtisodiy ahvoli ko'p jihatdan ana shu mablag'lardan foydalanish samaradorligiga bog'liq.

Aylanma mablag'lar haqidagi ma'lumotlar buxgalteriya balansida hamda «Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotnomalar» degan 2-a shaklda ko'rsatiladi.

**2.5-jadval**  
**Aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning tahlili,**

**(ming so'mda)<sup>34</sup>**


**Hajm ko'rsatkichlari**

Nº	Ko'rsatkichlar	2015-yil	2016-yil	2017-yil	Farqi(+,-)	O'zgarishi (%)
1	Barcha aktivlar	5166919	8015393	11281157.3	+3265764.3	140.7
2	Aylanma mablag'lar jami	1769569	3748058	6847266.3	+3099208.3	182.7
3	Pul mablag'lari	17192	935144	143630	-791514	15.4
4	Ishlab chiqarishzaxiralari(va xarajatlar)	739975	1675910	5554961.3	+3879051	3.3 barobar
5	Debitorlar	799858	844086	973075	+128989	115.3
6	Am.dagi o'z mablag'lari. Balansga asosan hisoblanadi	7698137	12525100.3	18890072.9	+6364972.6	150.8

**Nisbiy ko'rsatkichlar**

7	Am.ning umumiy mablag'lardagi hissasi, %(2q:1q*100)	34.2	46.8	60.7	+13.9	129.7
8	Am. tarkibida pul mablag'larining hissasi, %(3q:2q*100)	0.97	24.95	2.09	-22.86	8.4
9	Am. tarkibida zaxiralar va xarajatlar hissasi, %(4q:2q*100)	41.8	44.7	81.1	+36.4	181.4
10	Am.lartarkibida debitorlar hissasi, %(5q:2q*100)	45.2	22.5	14.2	-8.3	63.1
11	Am. tarkibida o'z mablag'lari hissasi, %(6q:2q*100)	435	334.2	275.9	-58.3	85.6

<sup>34</sup>“AGROKVANT”MCHJning 2-15-2017 yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



### **Aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning tahlil davridagi hisob-kitobi, (ming so'mda)**

Aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi jadavaldan shunday xulosa qilish mumkinki, korxona aylanma mablag'lari tahlil qilinayotgan 3 yil mobaynida ortib borgan va 2017-yilda o'tgan 2016-yilga nisbatan 182.7% ga ko'paygan. Korxona aylanma mablag'lari tarkibidagi pul mablag'lari hissasi 2017-yilda o'tgan 2016-yilga nisbatan 22.86% ga kamaygan. Bunga korxona pul mablag'lari hisobidan qurilish-montaj ishlari uchun ko'p miqdordagi sar-xarajatlarni amalga oshirishi sabab bo'lgan.

Aylanma mablag'lar tarkibida debtorlarning hissasi 2016-yilga nisbatan 8.3% ga kamaygan, buni korxona debtorlari miqdori o'sishining aylanma mablag'lar miqdori o'sishidan ortda qolgani bilan izohlash mumkin. Korxona aylanma mablag'lari tarkibida o'z mablag'lari ulushining tahlil qilinayotgan 3 yil mobaynida kamaytirib kelinishi ortidan 2017-yilda o'tgan 2016-yilga nisbatan 58.3% ga kamaygan holda 85.6% ni tashkil qilgan.

**2.6-jadval**

**Mehnat potensiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash hisob-kitobi, (kishi, ming so'mda)<sup>35</sup>**

Nº	Ko'rsatkichlar	2015-yil	2016-yil	2017-yil	Farqi (+,-)	O'zgarishi,%
1	Mehnat potensialining o'rtacha yillik soni, kishi	46	48	48	0	100
2	Shu jumladan oliv ma'lumotli mutaxasislar, kishi	12	12	12	0	100
3	Ularning ulushi, % (2q*100:1q)	26	25	25	0	100
4	Ishchilar soni kishi	34	36	36	0	100
5	Ishchilarning ulushi, % (4q*100:1q)	74	75	75	0	100
6	Ishga qabul qilinganlar, kishi	7	10	X		
7	Ishdan bo'shatilganlar, kishi	7	10	X		
8	Shu jumladan salbiy asosda bo'shatilganlar, kishi					
9	Mp. oboroti, koiffitsienti[(6q+7q):1q]	0.3	0.42	X		
10	Mp. Qo'nimsizligi, koiffitsienti (8q:1q)					
11	Shu korxonada 3 yildan ko'p ishlagan xodimlar soni, kishi	39	38	38	0	100
12	Mp. turg'unligi, koiffitsientda (11q:1q)	0.85	0.79	0.79	0	100

Korxonaning mehnat potensiali holatini tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonada 2015-yilda 46 kishidan iborat xodimlar jamoasi ishlagan bo'lsa, 2016-2017 yillarda ikki nafarga ko'payib 48 kishidan iborat xodim mehnat qilgan. 2017-yilga kelib ushbu ko'rsatkich saqlanib qoldi, qo'nimsizlik holatlari kuzatilmadi. Bu xodimlarning 12 kishidan iborat qismi oliv ma'lumotga ega xodimlar bo'lsa, qolgan qismini o'rta ma'lumotli xodimlardir.

---

<sup>35</sup>“AGROKVANT”MCHJning 2-15-2017 yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Korxonada kadrlar turg'unligi 2015-yilda 0.85 ko'rsatkichga ega bo'lган bo'lsa, 2016-2017 yillarda bir xil 0.79 ko'rsatkichga ega bo'lган. Xodimlarga to'lanadigan ish haqi fondi qiymati ham oshgan va 2017-yilda o'tgan 2016-yilga nisbatan 123.8 % ni tashkil etgan.

## **2.2 “AGROKVANT” MCHJning 2015-2016-2017 yillardagi kreditorlik va debitorlik qarzdorligi, foyda hamda rentabelligi tahlili;**

Aksariyat korxonalarda moliyaviy holatning yomonlashuvi ko'p jihatdan katta hajmdagi debitorlik va kreditorlik qarzlarining to'planib qolishiga bog'liq bo'ladi. Debitorlik qarzlarining katta hajmda paydo bo'lishi korxona mablag'larini muomaladan chiqaradi, o'z aylanma mablag'larining yetishmovchiligiga sababchi bo'ladi, natijada, kreditorlik qarzining oshishiga olib keladi, bular hammasi moliyaviy holatga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun ushbu qarzlar bilan bog'liq bo'lган jarayonni uzluksiz ravishda tahlil etib turish zarur.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatları hisob-kitoblarning doimiy yo'ldoshi hisoblanadi. To'lov muddatining cho'zilib ketishi korxonalar moliyaviy holatiga salbiy ta'sir qiladi.

Buxgalteriya balansida ko'rsatilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarining jamiga nisbatan har bir qarz turining hissasini shu qarz summasini 100%ga ko'paytirib, jamiga bo'lish orqali aniqlanadi.



Shundan keyin tahlil amalga oshiriladi. Hisobot davrining oxiridagi qarzlar hajmini davr boshidagi qarzlar hajmiga, davroxiridagi hissasini davr boshidagi hissasiga solishtirilib, o'zgarishi (ko'paygan yoki kamayganligi) aniqlanadi.

Qarzlar bo'yicha mutloq o'zgarishni aniqlash uchun davr oxiridagi summasidan davr boshidagi summasi chegirilib tashlanadi, nisbiy o'zgarishini aniqlash uchun mutloq o'zgarish summasi 100% ko'paytirilib, natijasini davr boshidagi summasiga bo'lish kerak. Shundan keyin debitorlik va kreditorlik qarzlarining umumiy holatiga baho beriladi.

**“AGROKVANT” MCHJning 2015-2016-2017 yillardagi kreditorlik va  
debitorlik qarzdorligi, foyda hamda rentabelligi tahlili;<sup>36</sup>**

No	Ko'rsatkichlar	2015-yil	2016-yil	2017-yil	Farqi(+,-)	O'zgarishi (%)
1	<b>I Debitorlik qarzlari, jumladan, Xaridor va buyurtmachilarning qarzi</b>	752415	844086	808775	-35311	95.8
2	Budgetga soliq va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlar	17833	X	X	X	X
3	Xodimlarga berilgan bo'naklar	X	X	145600	+145600	100
4	Boshqa debitorlar qarzi	X	X	X	X	X
	Jami:	770248	844086	954375	+110289	113.07
1	<b>II Kreditorlik qarzlari, jumladan, Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar</b>	X	795810	425600	-370210	53.5
2	Budgetga to'lovlar bo'yicha qarzlar	102610	8710	145260	+136550	1667.7
3	Mehnat haqi bo'yicha qarzlar	33182	X	X	X	X
4	Sug'urtalar bo'yicha qarzlar	3450	260	46950	46690	18057.7
5	Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlar	X	X	X	X	X
6	Sho'ba korxonalariga qarzlar	X	X	X	X	X
7	Boshqa kreditorlar	X	X	X	X	X
	Jami:	139242	804780	617810	-186970	76.8

<sup>36</sup>“AGROKVANT”MCHJning 2-15-2017 yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



«AGROKANT» MCHJning iqtisodiy ko'rsatkichlariga e'tibor bersak, debtorlik qarzlaridan xaridor va buyurtmachilarning qarzi miqdori 2017-yilda 2016-yilga nisbatan 35311 ming so'mga kamayib, ya'ni 95.8% ni tashkil etgan. Ammo, jami debtorlik qarzları 3 yil mobaynida ham o'sishda davom etgan, ya'ni 2017-yilda 2016-yilga nisbatan 113.07%ga ortgan.

-Kreditorlik qarzları tarkibidamol yetkazib beruvchilar va pudratchilar qarzi evaziga 2017-yilda 2016-yilga nisbatan 370210 ming so'mga kamayib, ya'ni 53.5


% ni tashkil qilgani tufayli kreditorlik qarzlari miqdori ham 186970 ming so'mga yoki 76.8% ga kamaygan.

### **2.8-jadval**

#### **“AGROKVANT” MCHJning 2015-2016-2017 yillardagi foydasi tahlili, (ming so'mda)<sup>37</sup>**

Nº	Ko'rsatkichlar	2015-yil	2016-yil	2017-yil	Farq(+,-)	O'zgarish farqi %
1	Mahsulot sotishdan sof tushum(ming so'mda)	6990750	5679176.79	20809049	+15129872.2	3.6 barobar
2	Sotilgan mahsulot tannarxi	6177250	4849176.3	18948427	+14099250.7	3.9 barobar
3	Sotilgan mahsulotdan olingan moliyaviy natija	813500	830000.49	1860622	+1030621.51	2.2 barobar
4	Davr xarajatlari(mahsulotni sotish, boshqaruv va boshqa operatsion xarajatlar)	256060	380619	622500	+241881	163.5
5	Boshqa operatsion daromadlar	X	X	X	X	X
6	Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlar natijasi(foyda+, zarar-)	624467	649491.49	1238122	+588630.51	190.6
7	Moliyaviy faoliyat natijasi(+,-)	X	X	X	X	X
8	Tasodifiy foyda natijasi(foyda+, zarar-)	X	X	X	X	X
9	Soliq to'langanga qadar foyda	345194	355529.9	1080361	+724831.1	3 barobar
10	Soliqlar summasi	248712	338321.81	371378	+33056.19	109.8
11	Sof foyda(9q-10q)	345194	355529.9	624300	+268770.1	175.6


<sup>37</sup>“AGROKVANT”MCHJning 2-15-2017 yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



Korxona foyda tahlili keltirilgan jadval maʼlumotlaridan shu narsa ayon boʼladiki, korxona qurilish montaj-ishlarini amalga oshirish uchun sarf qilgan xarajatlar va ulardan kelayotgan tushum miqdori tahlil qilinayotgan 2015-2016-2017 yillar mobaynida mutanosib ravishda ortib borgan. Xususan, 2017-yilga kelib yaratilgan qurilish-montaj ishlaridan tushgan tushum va uning tannarxi mos ravishda qariyb 3.6 va 3.9 barobarga ortgan. Buning natijasida sotilgan mahsulotdan olingan moliyaviy natija, yaʼni daromad 2.2 barobar koʼpaygan (77 % ga farq qilgan holda). Ammo, korxonada bunga proporsional rafishda davr xarajatlari va soliq toʼlovlari ham ortib borgan, yaʼni davr xarajatlari 2017-yilda 2016-yilga nisbatan 163.5%ga, soliqlar miqdori esa 109.8%ga ortgan. Buning ortidan korxonaning sof foydasi miqdori qurilish montaj-ishlaridagi keskin oʼsish koʼrsatkichidan farqli 175.6%ga koʼpaygan.

**“AGROKVANT”MCHJning 2015-2016-2017 yillardagi rentabellik darajasi tahlili, (ming so’mda,%)<sup>38</sup>**

Nº	Ko’rsatkichlar	2015-yil	2016-yil	2017-yil	Farqi(+,-)	O’zgarishi(%)
1	Hisobot davrining sof foydasi	345194	355529.9	624300	+268770.1	175.6
2	Asosiy vositalarning o’rtacha yillik qiymati	3994004	5068989	5447689	+378700	107.5
3	Aylanma mablag’larning o’rtacha yillik qiymati	1769569	3748058	6847266.3	+3099208.3	182.7
4	Rentabellik darajasi,%(1q:(2q+3q)*100)	5.98	4.03	5.08	+1.05	126.1



**“AGROKVANT”MChJning 2015-2016-2017 yillardagi rentabellik darajasi tahlili diagrammasi, (ming so’mda,%)**

“AGROKVANT” MChJ ning rentabellik ko’rsatkichlari tahlilidan shu narsa ma’lum bo’ldiki, korxona sof foydasining asosiy vositalar va aylanma mablag’lari o’rtacha yillik qiymati yig’indisidagi ulushi ham daromadning o’sishi munosabati bilan 126.1%ga ko’tarilgan. Korxona rentabellik darajasi o’tgan 2016-yilga qaraganda 1.05%ga ko’payganini xulosa qilish mumkin.

<sup>38</sup>“AGROKVANT”MChJning 2-15-2017 yillardagi statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.


## 2.3 “AGROKVANT” MCHJning resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi tahlili

**2.10-jadval**

### Asosiy vositalar bilan ta’minlanganlikni ifodalovchi ko’rsatkichlarni aniqlash hisob-kitobi, (ming so’mda)<sup>39</sup>

<b>Hajm ko’rsatkichlari</b>						
Nº	Ko’rsatkichlar	2015-yil	2016-yil	2017-yil	Farqi(+,-)	O’zgarishi (%)
1	Asosiy vositalar o’rtacha qiymati	3994004	5068989	5447689	+378700	107.5
2	Sotilgan mahsulot hajmi	6990750	5679176.79	20809049	+15129872.2	3.6 barobar
3	Asosiy vositalarning faol qismi	2556162.6	3294842.9	3595474.7	+300631.8	109.1
4	O’z mablag’lari qiymati	2858822	3214352	3838652.3	+624300.3	119.4
5	Xodimlar soni kishi	46	48	48	0	100
<b>Nisbiy ko’rsatkichlar</b>						
6	Asosiy fondlarning sotilgan mahsulotdagi sig’imi,tiyin (1q:2q)	0.57	0.89	0.26	-0.63	29.2
7	Xodimlarning asosiy fondlar bilan qurollanganlik darajasi, so’m(3q:5q)	82484.9	100323.7	107818.8	+7495.1	107.5
8	O’z mablag’larining Av bilan ta’minlanganligi, so’m (1q:4q)	1.4	1.58	1.42	-0.16	89.9

<sup>39</sup>“AGROKVANT”MCHJning 2-15-2017 yillardagi statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.




Korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi tahlili shuni ko'rsatdiki, korxona asosiy vositalarining sotilgan mahsulot hajmidagi ulushi 2017-yilda 2016-yildagi miqdoriga nisbatan sezilarli miqdorda kamayib 0.26% ni tashkil etdi. O'z mablag'larining asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi miqdori ham 2017-yilda 2016-yildagi miqdoriga nisbatan kamaygan va 1.42% ga tushgan. Ammo, xodimlarning asosiy fondlar bilan qurollanganligi miqdori o'sib 107.5% ni tashkil etgan. 2017-yilda asosiy vositalarning faol qismi qiymati 3595474.7 ming so'm bo'lgan holatda mazkur yildagi 48 nafar mehnat potensialining ushbu ko'rsatkich bilan ta'minlanganlik darajasi 107818.8 ming so'm qiymatni tashkil etgan, bu ko'rsatkich o'tgan 2016-yilga nisbatan 7495.1 ming so'm o'tgan yilga nisbatan mayda inventarlar evaziga ijobiy natijani ko'rsatgan. Ish hajmining o'sishi esa intensiv rivojlanish usuli yordamida, ya'ni mehnat unumdarligining oshishi hisobidan ro'y bergan.

**2.11-jadval**

**Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni aniqlash hisob-kitobi,**  
**(ming so'mda)<sup>40</sup>**

<b>Hajm ko'rsatkichlari</b>						
Nº	Ko'rsatkichlar	2015-yil	2016-yil	2017-yil	Farqi(+,-)	O'zgarishi (%)
1	Mahsulot hajmi	6990750	5679176.79	20809049	+15129872.2	3.6 barobar
2	Am.ning yillik o'rtacha qiymati	1769569	3748058	6847266.3	+3099208.3	182.7
3	Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati	3994004	5068989	5447689	+378700	107.5
4	Xodimlarning o'rtacha soni	46	48	48	0	100
<b>Nisbiy ko'rsatkichlar</b>						
5	Am.ning sig'imi, koiffitsienti, (2q:1q)	0.25	0.66	0.33	-0.33	50
6	1 so'm Av,ga to'g'ri Am. (2q:3q)	0.44	0.74	1.26	+0.52	170.3
7	Bitta xodimga to'g'ri keladigan Am., (2q:4q)	39468.9	78084.5	142651.4	+64566.9	182.7

<sup>40</sup>“AGROKVANT”MCHJning 2-15-2017 yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



### **Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni aniqlash hisob-kitobi, (ming so'mda)**

Korxonaning aylanma mablag'lari miqdori tahlil qilinayotgan uch yil mobaynida ortib borgan. Ammo, aylanma mablag'larning qurilish-montaj ishlari hajmidagi hissasi miqdori kamayib borgan va 2017-yilda 2016-yildagiga nisbatan 50% ga tushgan. Korxona xodimlarining aylanma mablag'lar bilanta'minlanganlik miqdori o'sib 182.7% ni tashkil etgan. Tahlildan shuni xulosa qilish mumkinki, korxonaning aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik darajasini tahlil qilingan 3 yil davomida ortib borib aylanma mablag'lar rentabelligi 2017-yilda o'tgan 2016-yilga nisbatan 9 % ni tashkil etgan.

**2.12-jadval**

**Mehnat potensiali bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar hisob-kitobi, (kishi)<sup>41</sup>**

Nº	Ko'rsatkichlar	2015-yil	2016-yil	2017-yil	Farqi(+,-)	O'zgarishi%
1	Mehnat potensiali soni shtat jadvali bo'yicha, tegishli yil boshida, kishi	46	48	48	0	100
2	Haqiqiy mehnat potensiali soni, tegishli yil boshida, kishi	46	48	48	0	100
3	Mp. bilan shtat jadvalining ta'minlanganligi, %	100	100	100	0	100
4	Mahsulot hajmi, (ming so'mda)	6990750	5679176.79	20809049	+15129872.2	366.4
5	Mp.ning o'rtacha yillik miqdori, kishi	46	48	48	0	100
6	Mehnat sig'imi bir million so'm mahsulotga to'g'ri keladigan xodimlar soni, kishi(5q:4q)	6.6	8.5	2.3	-6.2	27.1
7	Asosiy vositalar faol qismining o'rtacha yillik qiymati, (ming so'mda)	2556162.6	3294842.9	3595474.7	+300631.8	109.1
8	Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati, (ming so'mda)	1769569	3748058	6847266.3	+3099208.3	182.7
9	Mp.ning qurollanganligi	86826.2	105604	113493.5	+7889.5	107.5
10	Am.ning Mp. bilan ta'minlanganligi, bir million so'm Am.ga to'g'ri keladigan Mp, kishi(5q:8q)	26	13	7	-6	53.8

<sup>41</sup>“AGROKVANT”MCHJning 2-15-2017 yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Korxonada mehnat potensiali ishlab chiqarish uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. “AGROKVANT” korxonasining mehnat potensiali tahlilidan shu narsa ma’lum bo’ldiki, yaratilgan mahsulot va ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan aylanma mablag’larning bir million so’mi miqdoriga 2016-yilda mos ravishda 8 kishi va 13 kishi to’g’ri kelgan bo’lsa, 2017-yilda bu ko’rsatkich keskin kamaygani holda 2 kishi va 7 kishini tashkil etgan. Bu ko’rsatkichdan bilish mumkinki, korxona mehnat potensialining yaratilayotgan mahsulot miqdoridagi ulushi yildan yilga ortib kelgan.

### **III-BOB “HARAKATLAR STRATEGIYASI” DOIRASIDA “AGROKVANT”MCHJ NING ISTIQBOLLI RIVOJLANISH YO’NALISHLARINI ASOSLASH**

#### **3.1 “Harakatlar strategiyasi” bo'yicha diversifikatsion rivojlanish yo'nalishlari**

“Harakatlar strategiyasi” dasturi doirasida mamlakat miqiyosida uzoq muddatga belgilangan 5 tarmoqdan iborat strategik rivojlantirish yo’nalishlari belgilab berilgan bo’lib, korxonalarini rivojlantirish yo’nalishi uchun bevosita aloqador bo’lgan tarmoq yo’nalishi iqtisodiyotni rivojlantirishni ko’zda tutadi.

Jumladan farmon matniga yozilgan sharhda shunday deyiladi - “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan uchinchi yo’nalishda ko’rsatilgan chora-tadbirlarni ro’yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta’minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichmabosqich joriy etish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo’ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma’murchilagini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, ko’p tarmoqli fermer xo’jaliklarini rivojlantirish, shuningdek turizm industriyasini jadal rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek ushbu yo’nalish xususiy mulkni, moliya bozorini himoya qilish, qishloq xo’jaligini modernizatsiyalash, zargarlik sohasini rivojlantirish, ayrim milliy korxonalarining aksiyalarini (IPO) nufuzli xorijiy fond birjalariga dastlabki tarzda joylashtirishga tayyorgarlik ko’rish chora-tadbirlarini ham o’z ichiga oladi.

2017-2021-yillarda umumiyligi qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro’yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotiniishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishslash tarmog‘i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

Dastur doirasida korxonalarni rivojlantirish yo'nalishlarining jahon tajribasida keng tarqalgan shakli bu diversifikatsion yo'nalish hisoblanadi. Diversifikasiyaning mazmuni korxonalar uchun rivojlanish maqsadida ishlab chiqarishning yangi tarmog'ini o'zlashtirshni anglatuvchi tushuncha demakdir.

**Diversifikatsiya** (lot. diversificatio — o'zgarish, xilma-xil taraqqiyot) — korxona (birlashma)larning faoliyati sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi. Diversifikatsiya ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish, iqtisodiy foyda olish, bankrotlikka barham berish va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi. Ilgari bir sohada ixtisoslashgan firmalarning (sanoat, transport, moliya va h.k.) boshqa ishlab chiqarishtarmoqlari, xizmat ko'rsatish sohalariga, birinchi navbatda, yuqori foyda beradigan sohalarga kirib borishi ularning xo'jalik faoliyati sohalari va imkoniyatlarini kengaytiradi. Diversifikatsiya natijasida turli-tuman tovarlar ishlab chiqaradigan, xizmat ko'rsatadigan hamda informatsion texnologiyalar va ishlanmalar bilan band bo'lgan keng tarmoqli, ammo hamisha ham texnologikjihatdan o'zaro bog'lanmagan majmualar (agrosanoat majmui, o'rmonsanoat majmui) vujudga keladi va bu ishlab chiqarish diversifikatsiyasi deyiladi. Bundan tashqari uning kredit diversifikatsiyako'rinishi ham bor (bunda kredit sifatida beriladigan kapital mablag'lar xavf-xatarni kamaytirish va yuqori foyda olish maqsadida turli-tuman ob'yektlar o'rtasida taqsimlanadi). Bunday diversifikatsiyatarmoqlararo kapital konsentratsiyasi jarayoni va korxonalararo ichki beqarorlikning kuchayishi bilan bog'liq.

Dunyo mamlakatlarida diversifikatsiya jarayoni 20-asrning 50-yillari o'rtalaridan rivojlana boshladi. Dastlab AQSH, Yaponiya, G'arbiy Yevropa davlatlarida diversifikatsiya sanoat, transport, qurilish, moliya sohalarida vujudga keladi. Shu bois diversifikatsiya harakteri mazkur davlatlarning ijtimoiy iqtisodiy omillari, shuningdek, boshqa davlatlarga tegishli bo'lgan umumiy omillar (ilmiy-texnika inqilobi, yuqori foyda uchun kurash, raqobat kurashi, texnik taraqqiyotdan qolib ketmaslik va b.) bilan belgilanadi. diversifikatsiyada firmalar, ayniqsa, monopol firmalar ko'p tarmoqlilik tusini oladi. Ular avvalo ko'p daromadli, tez

rivojlanadigan sohalar (elektronika, kimyo)da faoliyat boshlaydi. Kompaniyalar mahsulot ishlab chiqarish bilan birga, shu mahsulot uchun zarur bo‘lgan xom ashyoni ham o‘zлari tayyorlashga kirishadi. Mablag‘larni kam daromadli sohadan tejab ko‘p foyda beradigan tarmoqlarga sarf etadilar. Masalan, AQSH konsernlari xizmat ko‘rsatish, qurilish, yer maydonlari savdosi, nashr ishlari, savdo-sotiq axboroti, jihozlarni ijaraga berish va boshqalarda faoliyat yuritdi.

O‘zbekistan xalq xo‘jaligida yangi barpo etilgan sanoat korxonalarida asosiy mahsulot turidan tashqari qo‘srimcha mahsulotlar, xalq iste’moli tovarlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Mustaqillikning ilk davridan boshlab asta-sekin tovar ishlab chiqarishda bir ixtisoslikdan voz kechish, korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turini (nomenklatura va assortimentini) ko‘paytirish, ko‘rinishini o’zgartirish, yangidan yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni o’zlashtirish ya’ni ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich diversifikasiya qilish jarayonlarini amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi.

Keyingi yillarda esa past rentabelli va zarar ko‘rib ishlaydigan korxonalarini diversifikasiya qilishga katta e’tibor berilmoqda. Natijada ular oyoqqa turib mahalliy xom ashyodan yangi turdagи mahsulotlar ishlab chiqarmoqdalar va hozirgi paytda nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorda ham yetakchi o’rinni egallamoqdalar. Diversifikatsiyani amalga oshirishning shakllari, hajmi va usullari ayniqsa 2005-2009 yillarda keng avj oldi va rivojlanishning umumiy, investitsion konsepsiyasiga aylandi.

Yaqin va uzoq kelajakda ham ishlab chiqarishni diversifikasiya qilishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- korxona va tarmoqlarning faoliyat sohalarini kengaytirish;
- mahsulot va xizmatlar turlarini ko‘paytirish;
- mahsulot va xizmatlar sifatini takomillashtirish;
- mahsulot va xizmatlar bozorini kengaytirish;

Iqtisodiyotning real sektorida faoliyat yuritayotgan korxonalarini diversifikatsiyalash ularning nafaqat foyda (daromad) olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki O'zbekistonning jahon bozorida yangidan-yangi marralarga erishishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.


Mamlakatimiz korxonalarini faoliyatiga diversifikatsion jarayonlarni tadbiq etish korxonada joriy ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur xom ashyo ehtiyojini qondirish imkonini taqdim etishi bu borada diqqatga sazovor jihat hisoblanadi. Mazkur holat qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun ayniqsa xarakterlidir.

Xususan, "AGROKVANT" MChJ faoliyatini o'rganishdan shu narsa ayon bo'ladiki, korxona tahlil qilingan 3 yil mobaynida yuqori darajadagi daromad miqdoriga erishgan, ammo ushbu ijobiy natijalar bir xil ishlab chiqarish bilan bir qatorda qurilish-montaj ishlari yaratish tannarxi ham korxonada diversifikasiya asosidagi kooperatsiyaning va ixtisoslashuvning yo'qligi sababli yuqori sur'atlarda o'sib borgan.

### ***2.1-jadvaldan nusxa Korxona mahsulot tannarxi o'sishi holati<sup>42</sup>***

Nº	Ko'rsatkichlar	2015-yil	2016-yil	2017-yil	Farq(+,-)	O'zgarish farqi %
1	Qurilish-montaj ishlari hajmi (ming so'mda)	6990750	5679176.79	20809049	+15129873	3.6 barobar
2	Ishlab chiqarish tannarxi	6177250	4849176.3	18948427	+14099250.7	3.9 barobar
3	Qurilish-montaj ishlaridan yalpi foyda	813500	830000.49	1860622	+1030621.51	2.2 barobar

<sup>42</sup>"AGROKVANT" MChJning 2-15-2017 yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



## 2.1-jadvaldan nusxa. Korxona mahsulot tannarxi o'sishi holati<sup>43</sup>

Bundan kelib chiqib korxonada xarjatlarni qisqartirishga alohida e'tibor qaratilishi lozimligini xulosa qilish mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat olib borayotgan har bir ishlab chiqarish korxonasi raxbariyati oldida yaratilayotgan mahsulot tannarxini qisqartirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu bilan korxona daromadlarini yanada oshirish, erishilgan foydani rivojlantirilishi zarur bo'lgan jihatlari uchun yo'naltirish imkoniyati paydo bo'ladi. "AGROKVANT" MChJ qurilish-montaj ishlari tannarxi tarkibida so'nggi 3 yillik natijalardan ma'lum bo'lishicha korxonada xom ashyo (sement, g'isht, temir beton konstruksiyalari, armatura, yoqilg'i va hokazolar) materiallari uchun sarf-xarajatlar katta ulushga ega. Korxonani rivojlantirish uchun esa uning faoliyatiga diversifikatsion yo'nalishni olib kirish maqsadga muvofiq bo'lib, bu borada mamlakat miqiyosida olib borilayotgan siyosiy yo'nalish bunga to'la mutanosibdir.

"AGROKVANT" MChJ korxonasida o'z ishlab chiqarish tarmoqlarini bir necha xil yo'nalishga kengaytirish imkoniyati mavjud. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- qurilish materiallari ishlab chiqarish va sotish;
- alyumin va plastik profillardan eshik, derazalar, romlar, vitrajlar ishlab chiqarish;

<sup>43</sup>“AGROKVANT”MChJning 2-15-2017 yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

- poletilin mahsulotlar, quvurlar idishlar, plyonkalar ishlab chiqarish kabi yuzlab xo'jalik yuritish ishlarini keltirib o'tish mumkin.

Korxona qurilish-montaj ishlari tannarxini qiqartirish uchunkorxona mutasaddilari asosiy faoliyat negizida tayanch xom ashyo hisoblangan g'isht ishlab chiqarishni yo'lga qo'ysa, tannarxni pasaytirishning rezerv imkoniyati yaratilgan bo'ladi. Bu korxona uchun arzon va ishonchli xom ashyo manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

“AGROKVANT” MCHJ negizida g'isht ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun taklif etilayotgan loyihani amalga oshirish uchun mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarga uskuna va texnologiya ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi yetakchi milliy kompaniyalardan Toshkent shahri Lutfiy ko'chasi 6-uy manzilida joylashgan (tel. (371) 110-77-15, faks. (3712) 78-07-11) ALES-PENABETON” MCHJ bilan koorporativ boshqaruva asosidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish tavsiya etiladi. Mazkur innovatsion jarayonga yqorida zikr etilgan yo'nalish bilan birga O'zbekiston Respublikasi “Tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo va investitsiyalar vazirligi qoshida tashkil etilgan “O'zinfoinvest” agentligi ham amaliy ko'mak beradi.

### **3.2 Korxonalarining iqtisodiy rivojlanishida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyaning ahamiyati;**

O'zbekistonda kichik biznes korxonalarini barpo etish orqali mustaqil xo'jalik yurituvchi mulk egalari shakllandi. Kichik biznes korxonalarini bozor iqtisodiyotiga xos turli makroiqtisodiy shart-sharoitlar va talablariga moslashishi imkoniyatlariga egaligi bilan ustuvor ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning turlitarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishmilliy iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashning muhim makroiqtisodiyomillaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda kichik biznes taraqqiyotining keskin avj olishi natijasida ularning mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichkimahsulot salmog'idagi ulushining ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin.

Kichik biznes iqtisodiyotning shunday sektoridirki, u investitsiya muhitida yuz berayotgan deyarli barcha o'zgarishlarga moslashadi. Kichik biznes nuqtai nazaridan investitsiya muhitining jozibadorlik darajasini aniqlash uchun butun mamlakat va mintaqalardagi iqtisodiy vaziyatni ko'rsatuvchi omillar, iqtisodiyotning bu tarmog'iga investitsiyalar kiritish qonunlar va infratuzilmalar bilan qanchalik ta'minlanganligi, mintaqada bozorinfratuzilmasining rivojlanish darjasasi, malakali ishchi kuchining mavjudligi, shuningdek, mana shu va boshqa omillar bilan bog'liq xatarlar bor yoki yo'qligi g'oyat muhimdir.

Hozirgi davrda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishiga unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma muassasalarining tashkil etilishi va xizmat sifati darajasining yaxshilanib borishi sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Buning natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining mamlakatimizda yangi ish o'rinalarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo'libbormoqda.

Xususiy tadbirkorlikning asosiy xususiyati shuki, uning uchun mintaqaviyomillar qoida tariqasida, investitsiyalar jalb etish jarayoniga ta'siri jihatidanustunlik qiladi. Investitsiyaviy muhit tahlilini tarmoqlar bo'yicha olib borishzarurligini ko'rsatib o'tish kerak. Chunki, ijobiy investitsiyaviy omillar turlitarmoqlar uchun o'ziga xos jihatlarga ega. Ba'zi hollarda bir tarmoqda ijobiy rolo'ynashi mumkin bo'lgan omillar boshqa tarmoq uchun salbiy bo'ladi yoki muayyan tarmoq uchun biron-bir ko'rsatkich yetarli darajada namoyon bo'lsa, shu ko'rsatkichning o'zi boshqa tarmoqning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun mutlaqo kam bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda kichik tadbirkorlik uchun tarmoqlar bo'yicha investitsiyamuhiti alohida qiziqish tug'diradi. Kichik biznes uchun o'ziga xos ba'ziko'rsatkichlar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi va infratuzilmasini rivojlantirishning mintaqaviy ko'rsatkichi;
- egallab turgan bozor sektorlari bo'yicha (masalan, xizmatlar yoki savdo sohasida) raqobatlashuvchi yirik firmalarning mavjudligi va rivojlanish darajasi;
- mahalliy bank tizimining rivojlanish darajasi va boshqa omillar.

Kichik korxonalar o'zlariga xos xususiyatlar tufayli investitsiya resurslarini jalb etish uchun xizmat qiladigan ko'p sonli manbalarning ayrimlaridangina foydalana oladilar. Masalan, shuni qayd etish kerakki, kichik tadbirkorlikdagi ichki moliyalash manbalari tadbirkor o'zini o'zi investitsiyalashi uchun beradigan imkoniyatlar yirik firmalarning imkoniyatlaridarajasida emas. Shunga qaramay, bu manbalardan kichik tadbirkorlikda foydalanish sezilarli samara berishga qodir bo'lib, jalb etish samaradorligi jihatidan bir qancha afzalliklarga ega. Shunday qilib, investitsiya resurslarini shakllantirishning qulay manbalari sonini ko'paytirish hamda mavjud manbalardan foydalanish samaradorligini oshirish hozirgi vaqtda, birinchi navbatda, kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tuzilmalarining muhim vazifasi bo'lib qolmoqda.

Kichik korxonaning muhim xususiyati shuki, u moddiy shaklda oladigan resurslardan yirik firmalarga qaraganda ancha samarali va moliyaviy resurslarga qaraganda nisbatan samaraliroq foydalanish xususiyatiga ega. Ushbu xususiyatga sabab shuki, eng avvalo, kichik korxonani boshqarish tuzilmasi, odatda unchalik konservativ bo'lmaydi. Bu esa moliyaviy mablag'lardan foydalanish uchun salbiy omil, buyum holidagi investitsiyalar uchun esa ijobiy omildir. Moliyaviy investitsiyalarni qidirib topish, jalb etish va ishlab chiqarishga kiritish jarayoni hamma vaqt ancha rasmiylashgan va me'yoriy hujjatlar bilan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Qoida tariqasida yuqori darajali professional moliyachilarga ega bo'lмаган kichik korxona uchun esa bu operatsiya qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli kichik korxonalar moddiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytirishdan manfaatdor.

Intellektual resurslar (texnologiyalar, "nou-xau", savdo markalari va boshqalar) bundan mustasno, lekin bu sohada ham kichik korxona nazarida tayyor mahsulotni sotib olishi uchun mablag' yetarli emas, balki investitsiyalar sifatida shu tayyor mahsulotning o'zini olish ma'qulroq.

Bozor islohotlarini amalga oshirayotgan bir qator mamlakatlarda moddiyinvestitsiyalarni jalb etishning turli shakllari orasida lizing, franchayzing vatolingdan juda faol foydalanilmoqda. Buning ustiga, kichik tadbirdorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash organlarining mavjud va ishlab chiqilayotgan dasturiy hamda me'yoriy hujjatlarida mazkur shakllarga katta o'rinn berilmoqda.

Moddiy investitsiyalashning turli shakllaridan foydalanish samarasi ko'pjihatdan bunday operatsiyalarda vujudga keladigan munosabatni tartibga soladigan maxsus me'yoriy bazaning rivojlanish darajasi, tegishli bozor infratuzilmasining rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Xususiy tadbirdorlikni va bu sohaga investitsiyalarni jalb etishnirivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlaydigan davlat siyosatiniamalga oshirish institutsiyaviy va huquqiy tizimni doimiy ravishdatakomillashtirishni talab qiladi. Bu tizimning samarali ishlashi uning barcha unsurlari bir-birining vazifasini juda kam takrorlagan holda doimiy ravishdaozaro aloqada bo'lishini hamda faoliyatları muvofiqlashtirilishini taqozo etadi.

2000 yilda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlarito'g'risida"gi Qonun kichik biznesni tartibga solishning huquqiy asoslarinirivojlantirish sohasida davlat faoliyati takomillashuviga olib keldi. Shu bilanbirga, aytish kerakki, bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida kichiktadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash rag'batlantiradigan, tanlabqo'llaniladigan bozor mexanizmlarida muvozanat buzilishiga olib kelmaydiganbo'lishi kerak.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalarda davlat kafolatining kamayib borishini xorijiy investorlarda Respublikamizda

olib borilayotgan iqtisodiy siyosatga bo'lgan ishonch ortib borayotganligi bilan izoxlash mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida, davlat tomonidan iqtisodiy manfaatlari bo'limgan loyihalarni moliyalash to'xtatila boshlandi. Hukumat tomonidan faqat iqtisodiy manfaat chegaralangan yoki umuman bo'limgan ijtimoiy muhim loyihalar kafolatlanadi. Bular, birinchi navbatda, suv ta'minoti, ta'lim va sog'liqni saqlash, transport va aloqa infrastrukturasi sohalaridagi loyihalardan iborat.

Xorijiy investitsiyalarning o'sishida xalqaro moliya institutlari qarzlar doirasida import aloqalarni qayd etish tartibining soddalashtirilishi, sanoat korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta ta'minlash, soliq yukining pasaytirilishi, mahsulot taqsimlash to'g'risidagi bitimning qo'llanishi, shuningdek, xorijiy investorlar bilan investitsiya shartnomalarini tuzish yo'li orqali alohida imtiyozlar hamda preferentsiyalar taqdim qilish asosiy omillar bo'ldi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida donor mamlakatlar bilan istiqboldagi ustuvor yo'nalishlarni aniqlash borasida birgalikdagi ishlar jadallahdi. Bunda, birinchi navbatda, asosiy e'tibor mintaqalararo hamkorlik loyihalarini amalga oshirish, kommunal tarmoqda islohotlarni chuqurlashtirish, ekin yer maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash, kadrlar tayyorlashning milliy dasturini amalga oshirishga ko'maklashish, tibbiyot muassasalarini yuqori texnologiyadagi uskunalar bilan jihozlash, moliyaviy tashkilotlarning samaradorligini oshirish kabilarga qaratildi. Xususan, dunyoning qator davlatlari, birinchi navbatda, bugungi kunda bizda asosiy hamkor sifatida qaraluvchi, iqtisodiy aloqalar jadal rivojlanayotgan, qo'shma investitsion loyihalar amalga oshirish rejalashtirilayotgan yoki ko'zda tutalayotgan Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi va boshqa mamlakatlar bilan savdoiqtisodiy xamkorlik aloqalari barqaror sur'atlarda rivojlanmoqda.

Sirasini aytganda investitsiya ta'siri ostida korxonalarini rivojlantirish iqtisodiyot uchun g'oyat katta ahamiyat kasb etuvchi jarayonga aylanib bormoqda. Bugungi kunda korxonalarini rivojlantirish uchun chet el investitsiyalarini jalb etish jahon tajribasida sinovdan o'tgan keng tarqalgan ishonchli omilga aylanib ulgurdi.

Bu borada ayniqsa mamlakatimizda asosiy e'tibor investitsiyalarni jalg etishning to'g'ridan to'g'ri olib kiriluvchi investitsiyalarga urg'u berilmogda. Chunki bunday turdag'i investitsiyalarni korxona faoliyatiga jalg etish mazkur korxonaning bu turdag'i investitsiyadan to'laligicha foydalangan holda tezda rivojlanish imkonini beradi. Aynan mana shu vajdan korxonalar faoliyati uchun to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari jalg qilinishiga davlat siyosati miqiyosida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Bitiruv malakaviy ishimizning tadqiqot ob'yekti bo'lgan "AGROKVANT" MCHJ faoliyati o'rganib chiqliganda korxona faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsyaning oxirgi ikki 2016-2017 yillarda jalg qilinmaganligiga amin bo'ldik. So'nggi bor chet el investitsiyasi korxona faoliyatiga 2015-yilda jalg etilgan bo'lib uning qiymati 1586772 ming so'mni tashkil etgan. Mazkur investitsiya samarasida korxona qurilish-montaj ishlari uchun zarur asosiy vositalar xaridini amalga oshirgan. Bu esa korxonaga keyingi yillardagi rivojlanishda ildamlik imkoniyatini taqdim etmoqda deb o'ylaymiz.

### **3.3 Fan-texnika yutuqlari va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri**

Fan-texnika taraqqiyotining eng zamonaviy yo'nalishlaridan biri — bu ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishdir.

Modernizatsiyalash - bu barcha voqealarni, hodisa va jarayonlarni, jumladan ishlab chiqarishni zamonaviy talabga moslab o'zgartirish, ya'ni zamonaviylashtirish va yoshartirishdir. Modernizatsiya (fransuzcha modernisation, modeme - yangi, zamonaviy) jamiyat hayot faoliyatining barcha sohalarida kechadigan murakkab global jarayon hisoblanadi.

Modernizatsiyalashning bosh maqsadi - amaldagi ishlab chiqarish apparatini fan-texnika taraqqiyoti talablariga muvofiqlashtirish, asbob-uskunalar va xodimlarning mehnat unumdarligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini ko'paytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish, mehnat sharoitlarini maksimal darajada yaxshilash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishdan iborat.

Sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiyalashning bir qator asosiy yo‘nalishlari va instrumentlari mavjud. Keyingi 20 yil ichida sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiyalash tufayli sanoat korxonalarining bino va inshoatlari rekonstruksiya qilindi. Eskirgan mashina-mexanizmlar, asbob — uskunalar, uzatuvchi qurilmalar, agregat va apparatlar, transport vositalari va boshqa asosiy fondlar yangilari bilan almashtirildi. Mahalliy resurslarga asoslangan innovatsion texnologiyalar joriy etildi, tayyorlanayotgan mahsulotlarning nomenklaturasi va assortimenti kengaytirildi. Ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va resurslarni tejash tizimi yuzaga keldi. Sifatni boshqarish tizimi, standartlash va sertifikatlash muammolari oqilona hal etildi. Mustaqillik davrida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta qurishga bir necha trillion kapital mablag‘ sarflandi.

Barqaror iqtisodiy rivojlanishni uzlucksiz ta’minlash uchun, ishlab chiqarishini zamonaviy talab va didga moslab yashartirish uchun sanoat ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlarini yanada jadallashtirish kerak bo’ladi.

Ishlab chiqarish jarayonida ilmiy texnika progressini jadallashtirishning ahamiyati g‘oyat yuqoridir. Fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirishning asoslaridan biridir. Fan-texnika taraqqiyoti iqtisodiyotni (intensiv) rivojlantirishning hamma omillariga muayyan ta’sir ko’rsatadi, mehnat resurslaridan, ishlabchiqarish asosiy fondlaridan, moddiy resurslaridan oqilona foydalanish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga erishish imkonini beradi, bu nima bilan izoxlanadi?

Birinchidan, aynan fan-texnika taraqqiyoti mehnat unumdarligini oshirishning, mahsulot birligi hisobidan xarajatlarni kamaytirishning hamda ishlab chiqarishda band bo’lgan har bir xodim hisobiga tovar ishlab chiqarishni ko’paytirishning asosiy manbaidir. Mehnat samaradorligini o’sishi bilan bir vaqtda

mehnatni va ishlab chiqarishni ilg'or darajada tashkil etish chiqarilayotgan mahsulotning va ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini oshirishga faol ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish vositalari - mashinalar va asbob-uskunalar, binolar va inshootlar, xom-ashyo va materiallar, yoqilg'i va energiya tarkibida bo'lgan ashylashtirilgan mehnatni yanada samaraliroq qo'llanish uchun qulay sharoit yaratib beradi. Yangi samarali mashinalarni qo'llash hisobidan xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi.

Uchinchidan, fan-texnika taraqqiyotiishlab chiqarishni tashkil etishga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Yuqori unumli texnika yirik ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish sharoitida katta samara beradi. O'z navbatida faqat yirik korxonalarda va ishlab chiqarish birlashmalarida fan va texnologiyani jadal takomillashtirishni ta'minlovchi kuchli ilmiy tadqiqot va loyihalash konstruktorlik bo'limmalarini tashkil etish mumkin.

To'rtinchidan, fan-texnika taraqqiyoti mehnat xarakterini o'zgartirish va uni yengillashtirish, uni ijodiy mazmun bilan boyitish kabi ijtimoiy iqtisodiy vazifani hal etishni ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash o'z-o'zidan mamlakatda tovarlar ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan barcha turdag'i iqtisodiy resurslarni oqilona ishlatalishda asos bo'ladi.

Mamlakatimizsanoatida zamonaviy texnika va texnologiyalarning o'rnini mustahkamlash yurtimizda ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar orqali nafaqat ichki bozorda, balki raqobat kurashi kuchayib borayotgan jahon bozorlarida o'z o'rnini topishi uchun yagona yo'l hisoblanadi. Ishlab chiqarishni zamon talablariga javob berishidan korxona va firmalar bilan bir qatorda iste'molchilar ham naf ko'radi. Bizga ma'lumki, har qanday mamlakat milliy boyligining ortishi, iqtisodiy o'sishi, faqat uning tabiiy resurslari hisobiga emas, balki ishlab chiqarishda foydalanilayotgan texnika-texnologiyasining rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq.

Barqaror iqtisodiy rivojlanishni uzlusiz ta'minlash uchun, ishlab chiqarishini zamonaviy talab va didga moslab yashartirish uchun sanoat ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlarini yanada jadallashtirish kerak bo'ladi.

Shunday ekan yurtimiz xo'jaligi miqiyosida modernizatsiyalashni hamda fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga keng jalb etish g'oyat muhim. Uning ahmiyati rivojlanishda nechog'lik yuqori o'ringa ekanligi mamlakat iqtisodiyotida erishilgan yutuqlar va natijalar orqali ko'rinish turibdi.

Bu borada qurilish sohasida foydalanish mumkin bo'lgan il-fan yutuqlari ko'plab, xususan, qurilishni rivojlantirish jarayonining tezligi kundan-kunga oshib bormoqda. Qurilish loyihamalarining har biri qurilish kranlariga ehtiyoj sezadi. Bu borada mamlakatimizning yirik tovar ayriboshlash bo'yicha sherigi bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi kompaniyalari ishlab chiqarayotgan kranlar o'zining arzonligi va sifati bilan ajralib turadi.

Zamonaviy Xitoy ishlab chiqaruvchilarining kranlari, ish yuritishning aniq parametrlarini hisoblash imkonini beruvchi hamda maksimal havfsizlik darajalarini ta'minlab beradigan so'nggimodellashtirish tizimlariga asoslangan holda ishlab chiqariladi. Shuning uchun ham bugungi kunda Xitoyning "ZOOLION" korxonasi kranlari yirik qurilish loyihamalarining ishonchli yordamchisi hisoblanadi.

Ularning bir qancha rusumlardagi turlari mavjud: "PALFINGER SANY STC350B" rusumli o'zi yurar kran, "PALFINGER SANY STC500" rusumli avtokran, "XCMG QY30K5-I" rusumli o'zo yurar kran, "XCMG QY50K" rusumli avtokran. Qurilish-bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda kranlardan tashqari buldozerlarning ham o'rni beqiyos hisoblanadi. XCMG TY160 buldozeri bugungi kundagi eng zamonaviy buldozerlardan hisoblanadi. Bunday kran va buldozerlar fan-texnika tarqqiyotining yutug'i sifatida ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish orqali qurilish korxonalarini rivojlantirishda muhim omillarning biri bolishi shubhasizdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda jahon tajribasida korxonalarni rivojlantirish va buning ortidan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashgan har bir davlat oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Korxonalarni rivojlantirishga e'tibor XX asrda keng tarqala boshlagan bu borada yevropa va amerikalik olimlarning olib borgan ishlari diqqatga sazovor. Korxonalarni rivojlantirishga har bir davr mobaynida turlicha yondashib kelinganiga qaramay bu boradagi ilmiy xulosalar vaqt o'tishi bilan sayqallanib teranlashib borgan. Bu boradagi ilmiy xulosa sifatida korxonalarni rivojlantirishning intensiv va ekstensiv usullarini ko'rsatish mumkin.

Mahsulotning o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

**Ekstensiv iqtisodiy o'sishga** ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi.

**Iqtisodiy o'sishning intensiv turi** sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarining sifat jihatidan takomshshashtirish: yanada progressivroq ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirishi, shuningdek mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi.

Jahon amaliyotida har ikki usuldan foydalanish keng tarqalgan. Bu ikki usul bir vaqtda bitta korxona faoliyatida kamdan-kam alohida namoyon bo'ladi. Korxonalarni rivojlantirishning jahon tajribasida eng keng tarqalgan usullaridan biri bo'lib tarixiy mustahkam ildizga ega bo'lgan investitsiyalar hisobidan vaziyat taqazosiga ko'ra intensiv yoki ekstensiv usullaridan birini qo'llash orqali amalga oshirib kelingan.

Korxona faoliyatiga investitsiyalarni jalb etib uning hisobidan diversifikatsiya, modernizatsiya, kooperatsiya va ilm-fan yutuqlarini joriy etish hisobidan rivojlantirish holati jahonning eng ilg'or mamlakatlaridan AQSH, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlar amaliyotida koplab misollar bilan o'z ifodasini topgan.

Korxonalarini rivojlantirishdan eng ko'p korxona faoliyat yuritayotgan hudud ya'ni davlat manfaatdor hisoblanadi. Shu bois yuqorida tilga olingan rivojlantirishning turli yo'nalishlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi korxonalar rivojlanishida muhim tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda tadbirkorlik va korxonalarda ishlab chiqarish muhitini shakllantirish va rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar, ya'ni kichik va xususiy biznesni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, ularning faoliyat yuritishlarida erkinlik, aniq huquqiy kafolat bilan ta'minlanganlik zaminlari yaratilgan va uni amalga oshirishning qonuniy va me'yoriy jihatdan mustahkamlangan tizimi vujudga keltirildi. Qo'yilgan maqsadning yechimi esa mazkur tizimning samarali ishlashidadir.

Malumki, korxonalarini rivojlantirish, ularning faoliyat natijalarini yanada yuksaltirish va rivojlanish istiqbollarini belgilashda korxonaning xo'jalik yuritish potensialini, ya'ni uning joriy holatini chuqur tahlil qilish eng muhim masala hisoblanadi. Shu boisdan biz bitiruv malakaviy ishimizning tadqiqot ob'yekti bo'lgan "AGROKVANT" MCHJ ning 2015-2016-2017 yillardagi holatini tahlil etdik.

Tahlil natijalariga tayangan holda "Harakatlar strategiyasi doirasida "AGROKVANT" MCHJni rivojlantirish yo'nalishlari" mavzusida bajarilgan malakaviy bitiruv ishi bo'yicha quyidagicha xulosa qilish mumkin:

"AGROKVANT" MCHJning tahlil qilingan uch yil mobaynida qurilish-montaj ishlari hajmi keskin o'sishi ortidan korxona yuqori yalpi daromad ko'rsatkichiga erishgan, ammo korxonaning bu ishlar uchun sarf-xarajatlari, ya'ni qurlish montaj ishlari tannarxi ham yuqori sur'atlarda o'sishni qayd etgan.

-qurilish-montaj ishlari tannarxining yuqoriligi natijasida korxona erishilgan sof foydasi yalpi daromad o'sish sur'tidagi kabi o'sish ko'rsatkichini qayd etmagan, ya'ni ularning o'sishida keskin farq mavjud.

-korxona tahlil etilgan uch yil mobaynida asosiy vositalar qiyamatining mayda inventarlar hisobidan kichik miqdordagi o'sishiga erishgan va asosiy vositalarga katta mablag' sarflamay turib yuqori daromad olishga erishgan.

-korxona xodimlariga to'langan ish haqi fondi miqdorida ham qurilish-montaj ishlari hajmidagidek yuqori o'sish sur'ati ko'zga tashlanmaydi. Biroq korxona mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish hisobidan, ya'ni xo'jalik faoliyatini intensiv rivojlantirish boshqacha aytganda mehnat unumdorligini oshirish evaziga yuqori daqomad miqdoriga erishgan.

-korxona aylanma mablag'larida ham tahlil qilingan uch yilda o'sish ko'rsatkichlari saqlab qolingan.

“AGROKVANT” MCHJ faoliyatini o'rganishdan olingan xulosalar yuzasidan korxonani rivojlantirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

-korxonada qurilish-montaj ishlari tannarxini qiqartirishning rezerv imkoniyatlari ko'rib chiqilishi lozim, bu korxonaga kamida tahlil davridagi rivojlanish sur'atini saqlab qolib ham yuqori daromad olish imkonini berishi ehtimoldan holi emas.

-korxona qurilish-montaj ishlari tannarxini qiqartirish uchun korxona mutasaddilari asosiy faoliyat negizida tayanch xom ashyo hisoblangan g'isht ishlab chiqarishni yo'lga qo'ysa, tannarxni pasaytirishning rezerv imkoniyati yaratilgan bo'ladi. Bu korxona uchun arzon va ishonchli xom ashyo manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

—“AGROKVANT” MCHJ negizida g'isht ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun taklif etilayotgan loyihami amalga oshirish uchun mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarga uskuna va texnologiya ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi yetakchi milliy kompaniyalardan Toshkent shahri Lutfiy ko'chasi 6-uy manzilida joylashgan (tel. (371) 110-77-15, faks. (3712) 78-07-11)


ALES-PENABETON” MCHJ bilan koorporativ boshqaruv asosidagi hamkorlikni yo’lga qo’yish tavsiya etiladi. Mazkur innovatsion jarayonga yqorida zikr etilgan yo’nalish bilan birga O’zbekiston Respublikasi “Tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo va investitsiyalar vazirligi qoshida tashkil etilgan “O’zinfoinvest” agentligi ham amaliy ko’mak beradi.

-“AGROKVANT” MCHJ faoliyatiga to’g’ridan to’g’ri xorijiy investitsiyaning oxirgi ikki 2016-2017 yillarda jalb qilinmaganligiga amin bo’ldik. So’nggi bor chet el investitsiyasi korxona faoliyatiga 2015-yilda jalb etilgan bo’lib, uning qiymati 1586772 ming so’mni tashkil etgan. Mazkur investitsiya samarasida korxona qurilish-montaj ishlari uchun zarur asosiy vositalar xaridini amalga oshirgan. Bizning fikrimizcha bu bilan korxona keyingi 2016-2017 yillarda rivojlanishda ildamlik imkoniyatiga ega bolgan. Shu sababli keyingi yillarda korxona faoliyati uchun tavsiya etilayotgan diversifikatsion rivojlanitirish yo’nalishlarini amaliyotga joriy etish uchun investitsiya manbalarini qidirib topish va ulardan korxona faoliyati natijalarini yuksaltirishda keng foydalanilsa, korxona uchun ayni muddao bo’ladi.

-bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan ilm-fan taraqqiyotidan foydalanmay turib ildam rivojlanishning imkoniyati mavjud emas, shu bois “AGROKVANT” MCHJ faoliyatiga ham ana shunday fan-texnika yutuqlari samarasi bo’lgan zamonaviy qurilish texnikalari joriy etish imkoniyatlari ko’rib chiqilishi lozim. Buning uchun ham mamlakatimizda joriy etilgan qulay investitsion muhitdan foydalanib zamonaviy “PALFINGER SANY STC350B” rusumli o’zi yurar kran, “PALFINGER SANY STC500” rusumli avtokran, “XCMG QY30K5-I” rusumli o’zo yurar kran, “XCMG QY50K” rusumli avtokran, XCMG TY160 buldozerlar kabi zamonaviy texnikalarni qurilish faoliyatiga jalb qilish korxonani rivojlantirishda foydadan holi bo’lmaydi.

### 3.4-rasm

#### Korxonada diversifikatsion yo'nalishlarning asosiy tarkibiy qismlari va ularning davlat va nodavlat taskilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mexanizmlari<sup>44</sup>



<sup>44</sup>Manba: Korxona joriy holatidan kelib chiqib muallif tomonidan ishlab chiqildi.

## **Mehnat va atrof-muhit muhofazasi**

Qurilish tashkilotlari yoki korxonalariga ishga yangi qabul qilingan barcha ishchilar ish o‘rinlarida kirish instruktaji va birlamchi instruktajdan o‘tganlaridan keyingina ishga qo‘yilishlari mumkin.

Kirish instruktajini xavfsizlik texnikasi bo‘yicha muhandis o‘tkazadi. Bunda ishga qabul qilingan yangi ishchi ayni ishlab chiqarishdagi mehnat muhofazasining holati, ichki tartib qoidalari, ishlab chiqarish sanitariyasi, yonginga qarshi himoya tadbirlari bilan tanishadi. Kirish instruktaji bo‘yicha mashg‘ulotlar xavfsizlik texnikasi kabinetida, qurilishidagi ishlarning xavfsiz usullari tasvirlangan ko‘rgazmali qo‘llanmalardan foydalanib o‘tkaziladi. Instruktaj o‘tkazgan shaxs va undan o‘tgan shaxslar maxsus jurnalga imzo qo‘yadi.

Ish o‘rnida xavfsizlik texnikasi bo‘yicha birlamchi instruktajni master yoki uchastka rahbari o‘tkazadi. Birlamchi instruktajga ishchini o‘z ixtisosligi bo‘yicha vazifalari, ish o‘rmini xavfsiz tashkil qilish tartibi bilan. tanishtirish, qurilma va mexanizmlarning tuzilishi hamda ularga xizmat ko‘rsatish (ishga tushirish, tuxtatish va x.k.), asbob-uskuna va moslama, himoya vositalari va to’siqlar ishlatish hamda ulardan foydalanish qoidalari, qurilish materiallari va tayyor mahsulotlarni joylash qoidalari, yuk ko’tarish va transport vositalarini ishlatishning xavfsiz qoidalari, shuningdek, xavf chiqqan taqdirda o‘zini qanday tutish kerakligi bilan tanishtiriladi. Instruktaj o‘tkazilgandan so‘ng master ishchiga o‘z kasbi yoki bajarayotgan ishning turi bo‘yicha xavfsizlik texnikasiga oid instruksiya yoki eslatma topshirishi kerak.

Ish o‘rnida beriladigan instruktaj, shuningdek, har safar boshqa ishga o‘tganda yoki ish sharoitlari o‘zgarganda ham o‘tkaziladi; qurilishdagi kompleks brigadalar ishchilari o‘zлari bajaradigan barcha ish turlari bo‘yicha xavfsizlik texnikasidan instruktaj o‘tishlari shart.

Qurilishda hamma ishchilar uchun takroriy instruktaj 3 oyda bir marta o‘tkaziladi. Uchastka va sexda instruktaj o‘tkazishning barcha turlari yozib boriladigan jurnallar tutiladi.

Instruktajlardan tashqari, qurilishga yangi ishga kelganlarni, ishga kelgan kundan boshlab uch oydan kechiktirmsandan qurilish-montaj tashkiloti bosh muhandisi tasdiqlagan dastur asosida ishlarning xavfsiz usullari va uslublariga o'qitish kerak. O'qitish tugagandan so'ng ishchining ko'rsatilgan ishlarning usul va uslublarini o'zlashtirganligi yuzasidan olgan bilimi tekshirilib, unga guvoxnomalar beriladi.

Xavfsizlik texnikasining yuqori talablari qo'yiladigan qurilishmontaj ishlarida band bo'lган ishchilar (balandliklarda ishlovchi montajchilar, tunukachilar, izolyasiyalovchilar, qum purkovchilar, elektrgaz payvandchilar, kran mashinistlari va boshqalar) xavfsizlik texnikasi bo'yicha o'qish kursini tugatib, imtixon topshirgan va ish bajarishga guvoxnomasi bo'lган hollardagina ishga qo'yiladilar.

Qurilishga liniya muhandis-texnik xodimlari ishga qabul qilinganda (masterlar, ish yurituvchilar, mehaniklar, energetiklar) xavfsizlik texnikasi bo'yicha instruktajni ularga tashkilotning bosh muhandisi o'tkazadi.

Barcha ishlab chiqarish tarmoqlarida bo'lgani kabi qurilishda ham atrof-muhitni muhofaza qilish muhim umumxalq va davlat ahamiyatiga molik vazifa bo'lib, nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar farovonligi ham bu vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishiga bog'liqdir.

Korxonalarda hosil bo'layotgan chiqindilarni tutib qolish va ularni qayta ishlashga e'tiborni kuchaytirish salomatlik yo'lidagi muhim tadbirlardan hisoblanadi. Sanoat korxonalari binolari shamol esib turadigan, iflos chiqindilarni o'ziga tortib to'plamaydigan joyga qurilishi lozim.

Sanoat korxonalari loyihalarini tuzishning sanitariya me'yorlariga muvofiq korxonalar bilan aholi yashaydigan joylar orasida ma'lum masofa bo'lishi zarur. Masalan, chiqindilarning zaharli ta'siriga ko'ra I sinf korxonalari uchun mazkur masofa 1000 metrga, II sinf korxonalari uchun 500 metrga, III sinf korxonalar uchun 300 metrga, IV sinf uchun 100 va V sinf korxonalar uchun 50 metrga teng. Bunda o'simliklarning chang, shovqinni ushlab qolishi, havoni kislorod bilan boyitishni nazarda tutib sanitariya-himoya xududlarini ko'kalamzorlashtirish

lozim. Atmosfera havosidagi zaharli gaz va bug`ni zararsizlantirish va ularni har xil moslamalar yordamida ushlab qolib va xalq xo`jaligida qo`llash yuzasidan 1974 yil 7 fevralda chiqqan «Gaz tozalagich va chang ushlagich moslamalari ishi ustidan davlat nazorati o`rnatish haqida nizom» asosida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Olimlarimiz katta ko`chalar va aholi yashaydigan binolar orasida daraxtlarni uch va to`rt qator, butalarni ikki qator qilib o`tkazishni tavsiya qilayaptilar. Shunda yoz oylarida atmosfera havosi 40—60%, qishda 10—15 % tozalanar ekan. Katta shaharlarda qurilgan xalqa yo`llar, er osti tunellari va ravon yo`llar qurilishi atmosfera havosini muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega.

O`zbekiston respublikasining 1981 yil qabul qilgan «Atmosfera havosini muhofaza qilish to`g`risidagi qonun» ni buzishda aybdor hisoblangan tashkilotlar va muassasalarning rahbarlari, ayrim shaxslar ma'muriy tartibda jarima to`laydilar, o`ta havfli hollarda esa jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Ifloslanishning oldini olish yoki uning miqdorini oz bo`lsada kamaytirish borasida hom ashyo, oraliq mahsulotlar va chiqindisiz yoki kam chiqindili turdag'i ishlab chiqarish chiqindilaridan to`la-to`kis foydalanishni ta'minlaydigan texnologiyani ishlab chiqish va qo`llashni o`z ichiga oladigan texnologik tadbirlarga ustunlik beriladi. Erituvchilardan qayta eritgich olish, ishlab chiqarish uskunalarini havo o`tkazmaydigan qilib zinchlash, korxona chiqindilarini kamaytirish, quruq jarayonlarni ho`li bilan almashtirish, tutunsiz, kam tutunli va oltingugurti oz yoqlig`ilarni qo`llash va boshqalar ham shunga kiradi.

Zaharli kimyoviy moddalarni ruhsat etilgan me'yorini (PDK) gigienik jihatdan respublikamizda mo`"tadillashtirish va havo havzasini ifloslanishdan saqlashda sanitariya qonun-qoidalariga rioya qilish g`oyat muhim ahamiyatga ega.

Qurilish jarayonida tuproq ifloslanishining oldini olish uchun suyuq va quyuq chiqindilarni to`plash, saqlash, yuklash va zararsizlantirish ishlari zamonaviy, gigienik jihatidan asoslangan tartib qoidalarga muvofiq bajarilishi zarur.

Dunyo fani oldida atrof-muhitni juda kam miqdorda yoki butunlay ifloslamaydigan texnologiyani ishlab chiqish masalasi ko`ndalang turadi. Bunga

xavfli kimyoviy moddalarni uncha turg`un bo`lmagan va ancha zararsizlariga almashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini zich yopiladigan qilish, tutash siklda ishlatiladigan kam chiqindili va chiqindisiz ishlab chiqarish, qishloq ho`jaligi zararkunandalariga qarshi kurashda pestitsidlarni biologik usul bilan almashtirish va boshqalar kiradi. Atmosferaga chiqadigan yoki oqar suvlarga tushadigan chiqindilarni tozalash va zararsizlantirish uchun samarador moslamalar zarur. Alovida xavfli, masalan, tarkibida uzoq saqlanib qoladigan radioizotoplarni bo`lgan chiqindilar maxsus ajratilgan joyga ko`mib tashlanadi.

Qurilish ishlab chiqarishda shu kabi va boshqa mehnat va atrof-muhit muhofazasi tadbirlari amalga oshiriladi. Bu kabi tadbirlar biz insonlar va biz uchun muhim bo`lgan atrof-muhitning muhofazasi uchun hayotiy ahamiyat kasb etadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2003.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi T.: Adolat, 1999

### **O'zbekiston Respublikasi qonunlari:**

3. O'zbekistonning yangi qonunlari. T.: "Adolat", 1997.
4. "Tadbirkorlik to'g'risida"gi qonuni
5. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida" qonuni
6. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonun
7. "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi
8. "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"
9. "Investitsiya faoliyati to'g'risida"

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari:**

- 10."O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida" T. :"Adolat"2000.
- 11.Respublika Prezidentining 1995 yil 5 yanvardagi "Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish to'g'risida" T. ::"Adolat"2000.
12. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. -T.: O'zbekiston, 2009. - 56 b.T.:"Adolat"2000.
- 13.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2018 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi
- 14.O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagি nutqi

## **Ilmiy adabiyotlar va darsliklar**

15. B. A. Abdukarimov, A.B. Bektemirov “Korxona iqtisodiyoti” T.: Fan va texnologiya - 2013
16. N.M.Maxmudov, M.T.Asqarova, I.Yu.Umarov “Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish” – T.: Fan va texnologiya - 2014
17. Abdukarimov I.T va boshqalar “Moliyaviy xisobotni o’qish va taxlil qilish yo’llari” T.: “Sharq” -1999
18. Vaxobov A.B. va b. “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” T.: “Sharq-ziyokori”- 2017
19. A.O’lmasov, M.Sharifxujayev “Iqtisodiyot nazariyasi” T.: “Mehnat” – 1995
- 20.X. Rahimova va boshqalar “Mehnatni muhofaza qilish” T.: “O’zbekiston” - 2003
21. Dodoboyev Yu.T va boshqalar “Korxona moliyaviy holatini baholash” Toshkent -1999

## **Chet tilidagi ilmiy adabiyotlar**

22. Темкин Александр. “Реструктуризация бизнеса или финансовое здоровье?” //Управление компанией–М.: 2003. №4. 63
23. Крюков А.Ф. , Егоручев И.Г. Анализ методик прогнозирования кризисной ситуации коммерческих организаций с использованием финансовых индикаторов// Менеджмент в России и за рубежом, 2001. №2. 54
- Хасанов Н.Х., Нажбиддинов С.Ф. Оценка экономического состояния предприятия: проблемы и решения –  
Т.: «Мир экономики и права», 1999г.–224.
24. Сайдова Г.К. Кое-что о банкротстве//Экономическое обозрение – Т.: 2013
25. Хэйгел Джон. Ложный путь к эффективности, "Вестника McKinsey"
26. Bianca Schwehr, “Corporate Rehabilitation Proceedings in the United States and Germany”.
27. Wutzke RA, “Report on the insolvency plan procedure on the occasion of the ZInsO—conference” (24/25. 05.2002 in Berlin).

28. Bork, Insolvenzrecht, marg. no. 333; Herzig, Das Insolvenzplanverfahren, pp. 41 et seq.; KuÈ bler/ PruÈtting/Otte, InsO, § 231 marg. no. 4 t seq
29. И.И., Шапиров В.Д. Реструктуризация предприятий и компаний–М.: Изд-во экономика, 2002. 56-58

### **Gazeta va jurnallar**

30. “O’zbekiston iqtisodiyoti” jurnali 2016-2017 yillardagi sonlari
31. “Bozor pul va kredit” jurnali 2016-2017yillardagi sonlari
32. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali 2016 - 2017 yillardagi sonlari
33. Soliq va bojxona xabarları gazetasi 2016 - 2017 yillardagi sonlari
34. Xalq so’zi 2015 yil 20 iyul. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisi to’g’risida axborot

### **Internet sahifalari**

35. [www.vestnikmckinsey.ru](http://www.vestnikmckinsey.ru)
36. [www.interscience.wiley.com](http://www.interscience.wiley.com).
37. [www.uzwikipedia.org](http://www.uzwikipedia.org)
38. [www.kitobxon.uz](http://www.kitobxon.uz)
39. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
40. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
41. [www.oliygoh.uz](http://www.oliygoh.uz)
42. [www.promzona.uz](http://www.promzona.uz)
43. [www.google.com](http://www.google.com)
44. [www.koreainvest.co.kr](http://www.koreainvest.co.kr)
45. [www.polpred.com](http://www.polpred.com)
46. [www.mfer.uz](http://www.mfer.uz)